

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

DUSBAEV O‘TKIR XIDIROVICH

**“SUG‘URTALOVCHILAR UYUSHMASI VA UNING SUG‘URTA
BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLINI OSHIRISH MASALALARI”**

5A231201 – Sug‘urta ishi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:
dots. Nurullaev A.**

KIRISH.....

**I BOB. SUG‘URTALOVCHILAR UYUSHMASI FAOLIYATINI
TASHKILiy-HUQUQIY ASOSLARI.....**

1.1 Sug‘urtalovchilar uyushmasi haqida tushunchasi va uning
tashkiliy asoslari

1.2 Sug‘urtalovchilar uyushmasining vazifalari va funksiyalari
hamda uning a‘zolarini huquq va majburiyatlari
.....

**II BOB. SUG‘URTA BOZORI INFRATUZILMASI
RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
VA UNI TAHLILI.....**

2.1 Sug‘urta bozori infratuzilmasi rivojlanishining umumiy
tendensiyalari.....

2.2 Sug‘urta bozori infratuzilmasining rivojlanishida majburiy
sug‘urtaning roli va uning tahlili.....

**III BOB. SUG‘URTALOVCHILAR UYUSHMASI SUG‘URTA
BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLINI OSHIRISH
MASALALARI.....**

3.1 Sug‘urtalovchilar uyushmasi sug‘urta bozori rivojlanishidagi
rolini oshirishda mavjud muammolar..

3.2 Sug‘urtalovchilar uyushmasi sug‘urta bozori rivojlanishidagi
rolini oshirish masalalari.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

Kirish

Magistrlik dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida xalqaro tajribalarni umumlashtirgan holda bozor iqtisodiyotiga xos sug'urta tizimi rivojlanib bormoqda. Albatta, o'tish davrida amalga oshirilgan sug'urta siyosati ishlab chiqarishning to'xtovsiz amalga oshirilishini taminlaydigan va aholi manfaatlarini ijtimoiy kafolatlaydigan sohaga aylanib bormoqda. Sug'urta bozorini rivojlantirish bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tadi: "O'tgan yili xizmat ko'rsatish va servis sohasida 13,4 foiz o'sishga erishildi, so'nggi o'n yilda esa aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmi, kishi boshiga hisoblaganda, qariyb 20 barobar oshdi. Biz bu borada mobil aloqa, internet, videotelefon tizimi, raqamli televideniye, zamonaviy bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, injiniring va boshqa zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz"¹.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, davlat mulkining xususiylashtirilishi, tadbirkorlik faoliyatining barqaror sur'atlarda rivojlanishi ishlab chiqarish faoliyati va fuqarolarning manfaatlarini bilan bog'liq zararlarning qoplanishida sug'urtalashga bo'lgan talabning oshib borishidan, sug'urtalash sohasi munosabatlariga yangi sug'urta ob'ektlari va sub'ektlari jalb etilishi orqali bo'sh mablag'larni investitsiyaga jalb etgan holda daromadlar ko'paytirilishidan dalolat beradi. Yuqoridagilar sug'urta ishi va sug'urta bozorini rivojlantirish, uning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy boshqarish mexanizmini takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov alohida ta'kidlab o'tganidek: 2013 yilda qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000 yildagiga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida

¹ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston. 2011. – 48 b.

qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik 6,4 foizga, chorvachilik 7,4 foizga o'sdi².

Sug'urta ijtimoiy ishlab chiqarishni turli xil xavf-xatarlardan himoyalash bilan davlatning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, sug'urta bozor munosabatlarining salbiy ta'siridan moddiy jihatdan nochor aholi qatlamlarini ijtimoiy himoyalashda jamiyatning muhim tarmog'i sifatida xizmat qiladi.

Sug'urta tizimi xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga jalb etilishini kafolatlashi natijasida mamlakatimizga mustakillik yillarida xorijiy investitsiyalar kirib kela boshladi. Bu esa, respublikamizda mashinasozlik sanoati rivojlanishiga, qishloq xo'jaligi xom-ashyosini qayta ishlash sanoati shakllanishiga, qurilish va yangi ob'ektlar barpo etilishiga, xizmat ko'rsatish sohasining jadal sur'atlarda rivojlanishiga va yangi ish o'rinlari tashkil etilishiga asos bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, milliy sug'urta bozori muammolarini o'rganish va rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish bugungi kunda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bayon etilganlar biz tanlagan mavzuni dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Magistrlik dissertatsiya ishi mavzusining o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi sug'urta bozori rivojlanishidagi rolini oshirish masalalari yuzasidan prof.L.I.Reytman, prof.A.P.Motylev, prof.S.T.Rayxerlar muayyan ilmiy ishlarni amalga oshirishgan. Vatanimizda bu sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlari professor Sobirov X, i.f.d Imomov SH.B., i.f.n., dots. SHennaev X., dots. Ochilov I., dots. Nurullaev A., dots. Abduraxmonov M va tadqiqotchi Ashrafxonov B.lar tomonidan amalga oshirilgan. Ammo, ushbu mavzu mustaqil ilmiy-tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг мамлакатимизни 2013 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2014 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи газетаси. 2014 йил 18 январь №13 (5943).

Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi. Ushbu magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi mamlakatimiz sugʻurta bozorida sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi sugʻurta bozori rivojlanishidagi rolini oshirish va shu asosda uni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Magistrlik dissertatsiya ishining vazifalari. Magistrlik dissertatsiya ishi oldiga qoʻyilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etiladi:

- sugʻurtalovchilar uyushmasi tushunchasiga taʼrif berish;
- sugʻurtalovchilar uyushmasining vazifalari va funksiyalari hamda uning aʼzolarining huquq va majburiyatlarini asoslash;
- sugʻurta bozori infratuzilmasi rivojlanishining umumiy tendensiyalarini oʻrganish;
- sugʻurta bozori infratuzilmasining rivojlanishida majburiy sugʻurtaning rolini oʻrganish va tahlil etish;
- sugʻurtalovchilar uyushmasi va uning sugʻurta bozori rivojlanishidagi rolini oshirishda mavjud muammolarni oʻrganish;
- sugʻurtalovchilar uyushmasi va uning sugʻurta bozori rivojlanishidagi rolini oshirish masalalari yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Magistrlik dissertatsiya ishining predmeti. Ushbu magistrlik dissertatsiya ishining predmeti boʻlib, sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi va ularning aʼzolari oʻrtasida yuzaga keladigan munosabatlar hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiya ishining obʼekti. sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi olib boradigan faoliyati ushbu magistrlik dissertatsiya ishining obʼekti boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Magistrlik dissertatsiya ishida sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi sugʻurta bozori rivojlanishidagi rolini oshirishning zamonaviy holati asosiy ilmiy masala sifatida qaraladi. Tadqiqot ishida sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi sugʻurta bozori rivojlanishidagi rolini oshirish masalalari ilmiy-

amaliy jihatdan tadqiq etiladi. Fikrimizcha, O'zbekistonda sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi talab darajasida va samarali yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning iqtisodiyot sohasidagi asarlari, iqtisodiyotni isloh qilish, shu jumladan sug'urta sohasi bo'yicha qabul qilingan Prezident farmonlari, qonunchilik hujjatlari, xorijlik va mamlakatimiz olimlarining sug'urta yo'nalishi bo'yicha e'lon qilgan ilmiy maqolalari va monografiyalari ushbu magistrlik dissertatsiya ishini yozishda dasturamal vazifasini bajardi. SHuningdek tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqotni amalga oshirishda qo'llanilgan uslublar. Ilmiy izlanishni amalga oshirishda fanda ma'lum bo'lgan ilmiy-tadqiqotlarni olib borish uslublaridan foydalanildi. CHunonchi, raqamlarni guruhlash asosida ma'lumotlarni qayta ishlashning statistik usuli, tizimli baholash, fikrlarni mantiqiy tahlili va ma'lumotlarni taqqoslama tahlil etish, ilmiy ketma-ketlikni ta'minlash uslublari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasida sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi sug'urta bozori rivojlanishidagi rolini oshirish masalalari yuzasidan muhim nazariy xulosalar chiqarilgan. Mazkur xulosalar sug'urtaning nazariy – ilmiy asoslarini boyitish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi faoliyatini xalqaro talablar asosida takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni katta amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotni amalga oshirish natijasida quyidagi ilmiy yangiliklar olindi:

- O'zbekiston sug'urta bozorida majburiy sug'urta xizmatini amalga oshirish orqali ixtiyoriy sug'urta xizmatlari yo'lga qo'yish taklif etildi;

- O'zbekiston fuqorolarining doimiy hayotiga va sog'liga bog'liq bo'lgan tibbiy sug'urta xizmati bo'yicha qonunchilik ba'zasi va sug'urta xizmatlarini joriy etishni taklif etildi;

- sug'urtalovchi sug'urtalanuvchi oldidagi huquqlarini to'liq amalga oshirish to'g'risida taklif etildi;

- sug'urtalovchilarning raqobatbardoshligini oshirishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni keng qamrovlilik bilan olib borish, xususan sug'urta tashkilotlari faoliyatida ixtisoslashgan marketing xizmatini tashkil etish bo'yicha taklif etildi;

- sug'urta tariflarini belgilashda potensial sug'urtalanuvchilarning ijtimoiy, iqtisodiy, hududiy o'ziga xosliklarini hisobga olishni bunda bozor segmentatsiyasidan keng foydalanish taklif etildi;

- sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta xizmatlarini sotishda tijorat banklari, pochta bo'limlari bilan istiqbolli hamkorlikni yo'lga qo'yishni yanada kengaytirishni taklif etildi;

- xorijiy amaliyotga tayangan holda mamlakatimizda faoliyat yurituvchi ilg'or sug'urta kompaniyalari internet saytlari orqali ommaviy standart hisoblanuvchi sug'urta xizmatlarini tajriba tariqasida sotishni amalga oshirish taklif etildi;

- sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta xizmatlarini sotishda tijorat banklari, pochta bo'limlari bilan istiqbolli hamkorlikni yo'lga qo'yishni yanada kengaytirishni taklif etildi;

Magistrlik dissertatsiya ishining tarkibi va xajmi. Magistrlik dissertatsiya ishi kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa va takliflar xamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqot ishining kirish qismida tanlangan ilmiy ish mavzusining dolzarbligi asoslangan hamda ishning maqsad va vazifalari ko'rsatilgan. Tadqiqot ishining birinchi bobida sug'urtalovchilar uyushmasining faoliyati va uni tashkiliy etish asoslari yoritilgan. SHuningdek, ushbu bobda sug'urtalovchilar uyushmasi haqida tushunchasi va uni tashkiliy asoslari hamda sug'urtalovchilar uyushmasining vazifalari va funksiyalari

hamda uning a'zolarining huquq va majburiyatlari keltirilgan. Magistrlik dissertatsiya ishining ikkinchi bobida sug'urta bozori infratuzilmasi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etilgan. Xususan, sug'urta bozori infratuzilmasi rivojlanishining umumiy tendensiyalari, sug'urta bozori infratuzilmasining rivojlanishida majburiy sug'urtaning roli va uning tahlili keltirilgan. Dissertatsiya ishining uchinchi bobida sug'urtalovchilar uyushmasi va uning sug'urta bozori rivojlanishidagi rolini oshirishda mavjud muammolar o'rganilgan hamda sug'urtalovchilar uyushmasi va uning sug'urta bozori rivojlanishidagi rolini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot ishining xulosa qismida ishni yozish natijasida shakllantirilgan xulosalar hamda takliflar ilgari surilgan.


Ishning hajmi 73 betni tashkil etadi.

I BOB. SUG'URTALOVCHILAR UYUSHMASI FAOLIYATINI TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1 Sug'urtalovchilar uyushmasi haqida tushunchasi va uning tashkiliy asoslari

O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 5-moddasida “Sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari sug‘urta faoliyatining sub’ektlari hisoblanadi. Sug‘urtalovchilar, sug‘urta vositachilari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari hisoblanadilar”, deb qayd etilgan.

Sug‘urta bozorining asosiy professional ishtirokchisi–sug‘urtalovchi. Sug‘urtalovchiga quyidagicha ta’rif berish mumkin:



Sug‘urtalovchi sug‘urta hodisalari yuzaga kelishini bartaraf etish va oldini olishga oid chora-tadbirlarni maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda va shartlarda moliyalashtirishga haqli.

Sug‘urtalovchilar sug‘urtani amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari mumkin emas. Quyidagilar bundan mustasnodir:

- maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va shartlardagi investitsiya faoliyati;
- sug‘urta sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish bilan bog‘liq faoliyat;
- sug‘urta agenti sifatidagi sug‘urta vositachiligi.

So‘zsiz sug‘urta bozorida sug‘urta kompaniyalarning mavqei nihoyatda kattadir. O‘z navbatida, sug‘urtalovchilar mulkiy shakliga qarab, bir nechta turda bo‘ladi (davlat, aksiyadorlik, davlat-aksiyadorlik va hokozalar). Sug‘urta bozorida qayd etilgan qatnashchilardan tashqari, o‘zaro sug‘urtalash jamiyatlari ham faoliyat ko‘rsatishlari mumkin. Bu jamiyatlarning boshqa sug‘urtalovchilardan farqi shundaki, ular foyda olish uchun intilmasdan, ko‘rilgan zararni o‘zaro hamkorlikda qoplashni nazarda tutadi. Statistik

ma'lumotlar bo'yicha, o'zaro sug'urtalash jamiyatlari xalqaro sug'urta bozorida, to'plagan sug'urta mukofoti hamda aktivlari jihatidan salmoqli o'ringa ega. AQSH va Yaponiya milliy sug'urta bozorlarida o'zaro sug'urtalash jamiyatlarining soni jami sug'urta kompaniyalarining 50 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi.

Oldingi bo'limlarda qayd etib o'tilganidek, sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar sug'urta tashkiloti deb ataladi. Bu tushuncha O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 925-moddasida quyidagicha tarif berilgan: "Tijorat tashkilotlari hisoblangan va tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirishga litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslar, agar qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, sug'urtalovchilar sifatida sug'urta shartnomalarini tuzishi mumkin"³. Ko'rinib turibdiki, sug'urtalovchi, ya'ni sug'urta tashkiloti maqomiga ega bo'lish uchun, albatta, faoliyat tijorat asosida tashkil etilishi lozim. YA'ni, sug'urtalovchining asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan. Sug'urtalovchi yuridik shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirishi mumkin. Hozirgi kunda sug'urtalovchilar yuridik shaxs sifatida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tishlari shart. Bu haqda "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida shunday deyilgan: "Sug'urtalovchilarni davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi"⁴. SHuni yoddan chiqarmaslik kerakki, sug'urtalovchi Adliya vazirligida sug'urtalovchi sifatida emas, balki yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tadi. Ammo, bu sug'urtalovchi sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini oldi degan ma'noni anglatmaydi. Sug'urtalovchi sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun qonunda o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligidan sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani olishi kerak.

³ Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси. – Т.: Адолат, 1996. – 413 б.

⁴ Ўзбекистон Республикасининг "Сугурта фаолияти тўғрисида"ги Қонуни.// "Халқ сўзи" газетаси, 2002 йил 28 май.


Sugʻurta tashkilotlariga qoʻyiladigan talablar, ularga litsenziya berish va ularning faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Sugʻurtalovchilar uyushmasi – bu sugʻurta faoliyatini muvofiqlashtirish, uyushma aʼzolarining manfaatini davlatning qonun chiqaruvchi va ijroiya organlari oldida himoya etish hamda mahalliy sugʻurta tashkilotlari va xorijiy sugʻurta tashkilotlari oʻrtasida oʻzaro foydali aloqalarni oʻrnatish maqsadida tashkil etiladigan sugʻurta tashkilotlarining uyushmasi. Bunga oʻzaro sugʻurtalash jamiyatlari xalqaro uyushmasini, texnik tavakkalchiliklarni sugʻurtalovchi kompaniyalar ittifoqini, Buyuk Britaniya sugʻurtalovchilar uyushmasini misol keltirish mumkin. Hozirga paytda Oʻzbekistonda sugʻurta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi faoliyat koʻrsatmoqda.

SHuningdek, “Oʻzbekiston sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari” uyushmasi 2007 yil 5 iyuldagi №1-sonli bayonnomasi bilan umumiy yigʻilish aʼzolari tomonidan tasdiqlandi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007 yil 16 iyuldagi №87-son bilan roʻyxatga olindi va uning taʼsis shartnomasi tasdiqlandi.


Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi boʻyicha yuridik shaxs hisoblangan korxona, tashkilot va muassasalar birgalikda Oʻzbekiston Respublikasining Fuqorolik Kodeksi hamda amaldagi qonunchilik va qonun osti hujjatlari asosida “Oʻzbekiston sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari” uyushmasini tashkil qilish maqsadida quyidagi taʼsis shartnomasini tuzdilar.

Sugʻurta bozori professional ishtirokchilari tarkibiga sugʻurta brokeri va sugʻurta agentini ham kiritish mumkin.



Hozirgi O‘zbekistonda sug‘urta brokerlarining roli deyarli yo‘q. Sug‘urta xizmatlarining aksariyati ularning ishtirokisiz amalga oshirilmoqda. CHet mamlakatlar sug‘urta bozorining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu - sug‘urta brokerlaridir. Brokerlar sug‘urta agentlaridan farqli o‘laroq, bir tomondan, sug‘urtalovchining, ikkinchi tomondan esa sug‘urtalanuvchining manfaatlarini himoya qiladi. AQSH va Buyuk Britaniyada sug‘urta brokerlari instituti nihoyatda taraqqiy etgan.

Sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida o‘zaro yoki ixtiososlashgan qayta sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida qayta sug‘urtalash xizmatlarini ko‘rsatishda vositachilik rolini bajaruvchi qayta sug‘urtalash brokerlari faoliyat yuritishi mumkin.



O‘zbekistonda sug‘urta bozorining barqaror rivojlanishi uning ishtirokchilari tarkibini yanada kengayishiga asos yaratmoqda. Bunga misol tariqasida sug‘urta bozorida adjaster, syurveyer, akturiy va assistans kabi atamarning kirib kelganligini keltirish mumkin. 2007 yil 15 sentyabrda matbuotda e‘lon qilingan “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi yuqorida nomlari zikr etilgan sug‘urta bozori yangi ishtirokchilarining huquqiy maqomini mustahkamlab berdi. Mazkur qonunning 9-2-moddasida adjasterga quyidagicha ta’rif berilgan: “Adjaster sug‘urtalovchining (sug‘urta qildiruvchining) topshirig‘i bo‘yicha quyidagi xizmatlarni ko‘rsatuvchi, o‘z shtatida tegishli mutaxassislariga ega bo‘lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir:

- sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin sug'urta ob'ektini ko'zdan kechirish va tekshirish;
- sug'urta hodisasi faktlarini va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish;
- sug'urta ob'ektining shikastlanish sabablarini va sug'urta hodisasi mavjudligini aniqlash;
- sug'urta hodisasi mavjud bo'lgan taqdirda - sug'urta hodisasi oqibatida vujudga kelgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini belgilash;
- to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta to'lovni summasini aniqlash;
- sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi bo'yicha xulosa tuzish"⁵.

Adjaster o'z faoliyatini sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi. Adjaster: sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga; sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga; sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas. Adjaster xizmati ko'rsatish natijalari hisobot tarzida rasmiylashtirilib, undan sug'urtalovchi zararlarning o'rnini qoplash va nizolarni hal qilish chog'ida foydalanishi mumkin. Adjasterning hisobotida ko'rsatilgan xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi jarayonida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilar safiga aktuariylar ham kiradi. 2007 yil 15 sentyabrda matbuotda e'lon qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-4-moddasida "Aktuariy quyidagilarni o'z ichiga oladigan aktuar xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir:

- sug'urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sug'urta majmui bo'yicha zarar etkazilishining takroriylikini va ularning oqibatlari og'irligi darajasini belgilash;

⁵ "Суғурта фаолияти тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Қонунига қўшимча ва ўзгаришлар киритиш тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Қонуни. - Халқ сўзи, 2007 йил 15 сентябрь.

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) zarur sug'urta zaxiralari va fondlarini matematik jihatdan asoslash hamda hisob-kitob qilish, ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish;

- sug'urtalovchining investitsiyalar sifatida to'plangan badallardan foydalanishida kapital qo'yilma normasi va netto-stavka miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko'maklashadigan tarzda aniqlash;

- sug'urta jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sug'urta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish;

- sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har bir turi bo'yicha tarif stavkalarini sug'urtalovchilar uchun ularni o'tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiyatini hisobga olgan holda belgilash;

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisob-kitoblardan foydalangan holda baholash;

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) daromadlarini sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har xil turlari bo'yicha rejalashtirish"⁶ kabi vazifalarni bajarishi qayd etib o'tilgan.

Sug'urta syurveyeri ham sug'urta bozorida muhim mavqega ega. Ammo, O'zbekistonda syurveyer xizmati etarli darajada rivojlanmagan. Ammo, shunday bo'lishiga qaramasdan syurveyerlarning faoliyat qonuniy jihatdan tartibga solindi. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilar safiga aktuariylar ham kiradi. 2007 yil 15 sentyabrda matbuotda e'lon qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9- 6- moddasida sug'urta syurveyeri haqida quyidagi normalar mavjud⁷: Sug'urta syurveyeri quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir:

⁶ "Сугурта фаолияти тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Қонунига қўшимча ва ўзгаришлар киритиш тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Қонуни. - Халқ сўзи, 2007 йил 15 сентябрь.

⁷ Ўша қонунда.

- sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta ob'ektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

- sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash;

- tekshirilayotgan sug'urta ob'ekti bo'yicha xulosa tuzish.

Uyushma, O'zbekiston Respublikasining Fuqorolik Kodeksi hamda amaldagi qonunchilik va qonun osti hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadi.

Uyushma a'zolari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi;

- "O'zagrosug'urta" davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi;

- "Kafolat" davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi;

- "Madad" ochiq aksiyadorlik jamiyati sug'urta agentligi;

- "ALSKOM" ochiq aksiyadorlik jamiyati sug'urta kompaniyasi;

- "AJSK" ochiq aksiyadorlik jamiyati sug'urta kompaniyasi;

- "Kapital sug'urta" ochiq aksiyadorlik jamiyati sug'urta kompaniyasi;

- "ALFA INVEST" yopik aksiyadorlik jamiyati sug'urta kompaniyasi;

- "FOTIS SUG"URTA" yopiq aksiyadorlik jamiyati chet el korxonasi sug'urta kompaniyasi;

- "Unversal Sug"urta" yopiq aksiyadorlik jamiyati qo'shma korxona sug'urta kompaniyasi;

- "UzAIG" yopiq aksiyadorlik jamiyati qo'shma korxona sug'urta kompaniyasi;

- "ARK SUG"URTA" ma'suliyati cheklangan jamiyat sug'urta kompaniyasi;

- "ASIA Insurans" ma'suliyati cheklangan jamiyat sug'urta kompaniyasi;

- "IShonCh" ma'suliyati cheklangan jamiyat banklararo sug'urta kompaniyasi;

- "KAFIL SUG"URTA" ma'suliyati cheklangan jamiyat sug'urta kompaniyasi;

- “TEMIR YO”LLARI- SUG”URTA” ma’suliyati cheklangan jamiyat sug’urta kompaniyasi;

- “TOSHKENT SUG”URTA” ma’suliyati cheklangan jamiyat sug’urta kompaniyasi;

- “Unipolis” ma’suliyati cheklangan jamiyat sug’urta kompaniyasi;

- “O’ZBEKINVEST HAYOT” sho‘ba korxona sug’urta kompaniyasi;

- “Asko Vostok” ma’suliyati cheklangan jamiyat sug’urta kompaniyasi;

SHuni alohida ta’kidlash joyizki, mazkur uyushma O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, uyushma ta’ sis shartnomasi va ustaviga asosan faoliyat yuritadi. SHu bilan bir qatorda uyushma davlat va uning organlari majburiyatlari bo‘yicha javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi, shuningdek davlat va uning organlari uyushmaning majburiyatlari bo‘yicha javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

Mazkur uyushma o‘z a’zolarining majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi hamda u o‘z nomi ko‘rsatilgan muhr va burchak tamg‘asiga ega. Uyushma yuridik shaxs hisoblanib, o‘z faoliyatini o‘z-o‘zini moliyaviy ta’minlash asosida amalga oshiradi, alohida mol-mulk va mustaqil balansga ega hamda a’zolari tomonidan unga yuklatilgan majburiyat va vazifalarni bajaradi shu bilan bog‘liq bo‘lgan huquqlardan to‘liq foydalanadi hamda mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi va majburiyatlarni bajarishi, sudalarda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin. Uyushma a’zolari o‘z mustaqilliklarini va yuridik shaxs huquqlarini saqlab qoladilar. Uyushma davlat boshqaruvi, shu jumladan taqsimlash vazifalarini bajarishga, shuningdek tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatiga ma’muriy aralashishga hamda o‘z a’zolari aksiyalarining paketlarini ishonchli boshqaruvga olishga haqli emas. Uyushma o‘z tarkibiga kiruvchi korxonalarning tezkor xo‘jalik faoliyatiga aralashish hamda xom-ashyo va tovar-moddiy resurslarni ular o‘rtasida taqsimlash huquqiga ega emas.

SHuningdek uyushma sho‘ba korxonalar, filial va vakolatxonalarini ochish huquqiga ega shu bilan birga uyushma a’zolari umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan tegishli hujjatlar asosida faoliyat yuritadi.

1.2 Sug'urtalovchilar uyushmasining vazifalari va funksiyalari hamda uning a'zolarini huquq va majburiyatlari

Sug'urta bozori professional ishtirokchilariga xizmat qiluvchi boshqa ko'plab tashkilot va muassasalar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozori professional ishtirokchilari assotsiatsiyasi bunga misol tariqasida keltirish mumkin. Bu nodavlat va notijorat tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007 yil 10 aprelda qabul qilingan 618-son Qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Uning asosiy faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- sug'urta bozori kon'yunkturasini o'rganish, uning yuqori darajada ochiq-oydinligini ta'minlash, raqobatni rivojlantirish, sug'urta xizmatlari hajmlarini ko'paytirish, ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- potensial xorijiy investorlarga mablag'larni O'zbekiston Respublikasi sug'urta sohasiga investitsiyalashda ko'maklashish;
- respublika aholisi o'rtasida sug'urta masalalari bo'yicha faol tushuntirish ishlarini olib borish;
- sug'urta sohasi uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, sug'urta bozori professional ishtirokchilari uchun professional etika normalarini ishlab chiqish.

Sug'urta bozori professional ishtirokchilari assotsiatsiyasining maqsadi unga a'zo bo'lgan tashkilotlarning manfaatlarini qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlari oldida himoya qilishdan iborat.

O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasining o'ziga xos va faoliyatiga mos vazifalari va funksiyalari mavjud.

Uyushmaning vazifalari;

- sug'urta bozorining kon'yunkturasini o'rganish, uning yuqori darajada ochiq-oydinligini ta'minlash, raqobatni rivojlantirish, sug'urta xizmatlari

hajmini ko'paytirish, ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- potensial xorijiy investorlarga mablag'larni O'zbekiston Respublikasi sug'urta sohasiga investitsiyalashda ko'maklashish;

- respublika aholisi o'rtasida sug'urtalash masalalari bo'yicha faol tushuntirish ishlarini olib borish;

- sug'urtalash uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, sug'urta bozori professional ishtirokchilari uchun professional etika normalarini ishlab chiqish;

- O'zbekiston sug'urta bozorida rivojlangan sug'urta texnologiyalarini tadbiq qilish, sug'urta ishini takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- sug'urta faoliyatiga taaluqli bo'lgan materiallar, shuningdek, umumiy reklama materiallari, statistik hisobot, o'quv qo'llanmalari, uslubiy qo'llanmalar va boshqa adabiyotlarni ishlab chiqish va nashr qilish;

- uyushma nomidan konferensiya, ko'rgazma, seminarlar tashkil qilish va shunga o'xshash tadbirlarda qatnashish;

- uyushmaning boshqaruv organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlaridan kelib chiquvchi boshqa vazifalarni amalga oshirish.

Uyushma tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun o'z ustav maqsadlariga zid kelmasa, xo'jalik jamiyatlarini tuzishga yoki ularda ishtirok etishga haqli.

SHu bilan bir qatorda aytib o'tish lozimki, uyushma a'zolarining ham o'ziga xos huquq va majburiyatlarga ega:

A'zolarining huquqlari:

- amaldagi qonunchilik va uyushma ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda uyushmaning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish;

- uyushma boshqa a'zolarining roziligidan qat'iy nazar amaldagi qonunchilik va uyushma ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda uyushmadan chiqish.

SHuningdek uyushma a'zosi turli sabablarga ko'ra a'zolikdan chiqqan, kirish, a'zolik va boshqa badallari qaytarilmaydi.

SHu bilan bir qatorda uyushma a'zolari quyidagi majburiyatlarni oladilar:

- uyushma ta'sis hujjatlari qoidalariga rioya etish;
- amaldagi qonunchilikka va uyushmaning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usul va muddatlarda a'zolik badallarini ajratish;
- uyushma faoliyati to'g'risidagi sir tutilgan axborotni oshkor qilmasliklari shart. Oshkor etilmaydigan axborotlarning hajmiga barcha shartnomalar, texnik va boshqa uyushma faoliyati to'g'risidagi axborotlar kiradi. SHuningdek uyushmaning har bir a'zosi va xodimi rasmiy ravishda va bexos olingan uyushmaning faoliyatiga taalluqli axborotlarni konfidensalligini ta'minlashga majbur va shu axborotlarni tarqalishini oldini oluvchi barcha imkon bo'lgan choralarni ko'rishi lozim;

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Uyushma ta'sis hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajaradi.

SHu bilan birga Uyushmaning a'zolari tijorat tashkilotlari, yuridik shaxslar, shuningdek Uyushma faoliyatining vazifalari va tamoyillarini tan oladigan hamda Ta'sis shartnomasi va Ustavda ko'zda tutilgan tartibda Uyushmaga a'zo bo'lgan chet el yuridik shaxslari bo'lishi mumkin.

SHuningdek Uyushmaga a'zo bo'lishda Uyushma a'zolari o'z xo'jalik mustaqilligini, yuridik shaxs huquqini saqlab qoladilar, mulkchilik shakli va nomini o'zgartirmaydilar.

Uyushmaning kuzatuvchilari, ta'sis shartnomasi va Nizomi tan oluvchi, sug'urta tashkiloti bo'lmagan, ittifoqlar, birlashmalar, korxonalar, muassasalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi, Uyushma Nizomi va Uyushmaning me'yoriy hujjatlari asosida faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

Uyushmaning kuzatuvchiligiga qabul qilish va undan chiqarish, shuningdek, Uyushma kuzatuvchilarining huquq va majburiyatlari Uyushma Kengashi tomonidan belgilanadi.

Uyushma a'zosi-yuridik shaxs tugatilganda yoki qayta tashkil etilganda, uning vorisi Uyushma Kengashining ko'pchiligi roziligi bilan kirish badalini to'lamasdan a'zolikka kirishi mumkin. Bunda voris uch oy ichida Uyushmada ishtirok etishini a'zolik badalini agar u to'lamagan bo'lsa, to'lash orqali tasdiqlashi shart.

Uyushma azoligiga qabul qilish, a'zolikka qabul qilinayotgan korxonaning vakil qilingan mansabdor shaxsi tomonidan imzolangan arizaga asosan amalga oshiriladi. Ariza Uyushma kengashi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi. SHu bilan bir qatorda a'zo bo'luvchi O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchisi ariza berib, ushbu shartnomani tan oladi, shartnomadan kelib chiqadigan barcha majburiyatlarni o'z bo'yniga oladi hamda ta'sis shartnomasi va mazkur ustavga binoan Uyushma a'zosining huquq va majburiyatlariga ega bo'ladi.

O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchisi ariza berish bilan bir vaqtda Uyushma a'zolari umumiy yig'ilishi belgilagan miqdorda a'zolik badalini to'laydi.

I bob bo'yicha xulosa

Sug'urtalovchilar uyushmasi faoliyatini tashkiliy etish uning vazifalari hamda funksiyalari amalga oshirish, shu bilan bir qatorda sug'urtalovchi uyushmasi a'zolarining huquq va majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishni ta'minlash maqsadga muvofiqdir. CHunki uyushma a'zolarining huquq va majburiyatlari o'z vaqtida to'liq bajarilsagina ular sug'urta xizmatlaridan foydalanishi va javobgarlik asosida faoliyat ko'rsatishlari shuncha darajada yuqori bo'lishidan dalolat beradi.

II BOB. SUG'URTA BOZORI INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNI TAHLILI

2.1 Sug'urta bozori infratuzilmasi rivojlanishining umumiy tendensiyalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaga bo'lgan talab oshib boradi, bu esa o'z o'rnida sug'urta bozori infratuzilmasini takomillashtirishni talab qiladi.

Hozirgi paytda jahon tajribasida sug'urta sohasida ikki tendentsiya davom etmoqda: ixtisoslashuv va universal faoliyat. Ixtisoslashuv deganda faqat bir soha, ya'ni sug'urta sohasiga ixtisoslashuv nazarda tutilyapti. Universal faoliyatda sug'urtachilar asosiy faoliyatdan tashqari yig'ilgan mablag'lar hisobidan turli ko'rinishdagi xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, savdo tashkilotlari va boshqa mulklarni sotib olib (masalan birja maklerlik firmasi, chakana savdo korxonasi, mehmonxona va boshqalar) faoliyatini yo'lga qo'ymoqdalar. Bizning mamlakatimizda ham bunday faoliyatni yo'lga qo'yish qimmatli qog'ozlar bozorinikg rivojlanishi va boshqa tarmoqlardagi faoliyati to'xtab qolgan sohalarni yo'lga qo'yish imkonini beradi deb hisoblaymiz. Ammo bunga milliy bozorimizda amal qilayotgan sug'urta sohasidagi qonunchilik yo'l qo'ymaydi. Masalan O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida "Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas deb ta'kidlab o'tilgan.

Yuqoridagi bunday cheklovlarni davlat sug'urta kompaniyalariga nisbatan qo'llanilib, boshqa mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalariga bu borada erkinlik berilsa, ular moddiy jihatdan o'zlarini tiklab olish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lar edilar.

SHuningdek sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriluvchi loyiha yakunlari bo'yicha "TOP 25" loyihasida 22 ta sug'urta tashkilotlari ishtirok etdi.

Ishtirokchilar doirasi “Global Insurance Group” sug'urta tashkiloti hisobiga kengaydi. Shu asnoda, 2013 yil davomida “TOP 25” loyihasida “Agro Invest Sug'urta”, “Alskom”, “Asia Insurance”, “Asko Vostok”, “DD General Insurance”, “Euroasia Insurance”, “Global Insurance Group”, “Gross Insurance”, “Hamkor Sug'urta”, “Ishonch”, “Kafil Sug'urta”, “Kafolat”, “Kapital Sug'urta”, “Madad”, “O'zbekinvest Hayot”, “Silk Road Insurance”, “Sug'urta uz”, “Temir yo'l Sug'urta”, “Transinsurance Plus”, “UzagroSug'urta”, “Uzbekinvest” va “Xalq Sug'urta” kabi sug'urta tashkilotlari ishtirok etdi.

Ushbu sug'urta tashkilotlari bozor bo'yicha sug'urta mukofotlarining 80 foizini shakllantiradi. Quyida keltirilgan barcha ko'rsatkichlar loyihada ishtirok etuvchi sug'urta tashkilotlari ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.

“TOP 25” loyihasida ishtirok etuvchi sug'urta tashkilotlari bo'yicha sug'urta mukofotlarining 2013 yildagi hajmi 283,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Respublikadagi sug'urta tashkilotlari faoliyatining o'tgan yil yakunlari sug'urta bozori umumiy ko'rsatkichlarining miqdor va sifat bo'yicha o'sishini ko'rsatdi.

“TOP 25” loyihasining hisobot davridagi yakuniy ma'lumotlariga ko'ra, sug'urta mukofotlarining hajmi miqdoriy ma'noda 2012 yil ko'rsatkichidan 22,3 foizga oshdi. 2013 yilda “TOP 25” loyihasi ishtirokchilarining sug'urta mukofotlarini to'plash bo'yicha o'sish tezligi sezilarli ravishda pasaydi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda majburiy sug'urtalash turlari bozordagi sezilarli ulushni tashkil eta boshladi va bozor ko'rsatkichlari dinamikasiga o'zining ta'sirini ko'rsatmoqda. “TOP 25” ma'lumotlariga ko'ra, 2013 yil davomida majburiy sug'urtalash turlari bo'yicha pul tushilmalari hajmi 2012 yil ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan. Bunga asosan, ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida majburiy sug'urtalash turlari bo'yicha mukofotlar hajmi 32,0 foizga o'sdi va 91,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

Majburiy sug'urtalashning umumiy sug'urta mukofotlaridagi ulushi 2,4 foiz punktiga oshdi va 32,3 foizni tashkil etdi. 2012 yilda ushbu ko'rsatkich 29,9 foizni tashkil etgan. Muvofiq ravishda ixtiyoriy sug'urtalash turlarining umumiy sug'urta mukofotlaridagi ulushi 67,7 foizni tashkil etdi. To'la ma'noda ixtiyoriy

sug'urtalash turlari bo'yicha sug'urta mukofotlari hajmi 18,1 foizga oshdi va 192,1 mlrd. so'mga yetdi.

Amaldagi sug'urta majburiyatlari hajmi dinamikasida ham o'sish kuzatilmoqda. Jumladan, 2013 yilda amaldagi sug'urta majburiyatlari hajmi 2012 yil darajasiga nisbatan 72,4 trln. so'mga ko'paydi. Natijada ushbu ko'rsatkich 69,9 foizga oshdi va 175,9 trln. so'mni tashkil etdi.

Ixtiyoriy sug'urtalash turlari bo'yicha ushbu ko'rsatkich 79,4 foizga o'sdi va 143,8 trln. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, majburiy sug'urtalash turlari bo'yicha majburiyatlarning hajmi yuqori tezlikda o'sdi. Shunday qilib, ushbu sug'urtalash turi bo'yicha amaldagi majburiyatlarning hajmi o'sishining tezligi 37,2 foizni tashkil etdi va majburiyatlarning hajmi 32,1 trln. so'mga yetdi.

Ixtiyoriy va majburiy sug'urtalash bo'yicha amaldagi sug'urta majburiyatlarining o'zaro nisbati bir muncha o'zgardi. Ixtiyoriy sug'urtalash bo'yicha amaldagi sug'urta majburiyatlarining yanada yuqori o'sish tezligi hisobiga, ushbu turning ulushi 4,4 foiz punktga ko'paydi. Natijada 2013 yil yakunlari bo'yicha ixtiyoriy va majburiy sug'urtalashning o'zaro nisbati tegishli ravishda 81,7 va 18,3 foizni tashkil etdi.

Ayni paytda mamlakatimizda sug'urta xizmatlari bozori jadal rivojlanib bormoqda. O'ttizdan ziyod kompaniya, jumladan, davlat va chet el kapitali asosida tashkil etilgan sug'urta kompaniyalari aholi ehtiyojini inobatga olgan holda, sug'urta xizmatlari ro'yxatini yildan-yilga kengaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, «O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi 2013-yilda sug'urta mukofotlari tushumi bo'yicha yetakchi o'rin, sug'urta to'lovlari bo'yicha esa ikkinchi o'rinni egalladi.

«O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi boshqaruvi raisining o'rinbosari vazifasini bajaruvchi Ixtiyor Nurmuhammedovning ta'kidlashicha, kompaniya tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlarining 50

foizdan ortig'i (30,9 milliard so'm) majburiy sug'urta turlari ulushiga to'g'ri keladi.

Qayd etish kerakki, majburiy sug'urta turlari davlat tomonidan tegishli me'yoriy-huquqiy hujjat asosida aniqlanmoqda. Mazkur hujjatga muvofiq sug'urta qoidalari, hajmi va tariflari, sug'urta obyektlari, sug'urta qiluvchi, sug'urta qilinuvchi va foyda oluvchilar belgilanadi. Xususan, 2008-yildan buyon mamlakatimizda transport vositalari egasining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta qilinmoqda.

Matbuot anjumanida «O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi 2013-yilda ushbu sug'urta turi bo'yicha 734 mingdan ziyod sug'urta shartnomasi tuzib, qiymati 22,2 milliard so'mdan ortiq mukofotni ta'minladi. Natijada qabul qilingan sug'urta majburiyatlari hajmi 4,7 trillion so'mdan oshgan. O'tgan yili kompaniyaga avtotransport vositalari egalaridan kelib tushgan 1,3 mingdan ziyod sug'urta e'tirozi bo'yicha 2,1 milliard so'm to'langan.

«O'zagrosug'urta» kompaniyasi 2009-yildan buyon ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilmoqda va bu mehnatkashlarning huquq hamda manfaatlarini himoya qilishda muhim omil bo'layotir. O'tgan 2013-yilda kompaniya 34,6 mingdan ortiq shartnoma tuzib, 6,8 milliard so'mdan ziyod sug'urta mukofotlarini ta'minladi. Qabul qilingan sug'urta majburiyatlari hajmi 5,1 trillion so'mdan oshdi.

Tadbirda ta'kidlandiki, mamlakatimizda Sog'lom bola yili, deb e'lon qilingan joriy yilda «O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi 18 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar hamda homilador ayollarni sug'urta qiladi.

Ma'lum bo'lishicha, 2013-yilning o'tgan davrida «O'zagrosug'urta» kompaniyasi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar bilan 3,66 millionta shartnoma imzolangan. Natijada olingan javobgarlik doirasida baxtsiz hodisalar va tabiat injiqliklari oqibatida ko'rilgan zararlar uchun mijozlarga 2012-yilning shu davriga nisbatan 3,6 foiz ko'p sug'urta to'lovlari to'langan.

Mamlakatimizda sug'urta bozorini rivojlantirish jarayonida majburiy sug'urtalashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zagrosug'urta" kompaniyasida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha 657 mingtadan ziyod, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha 28 mingta shartnoma imzolangan.

Noqulay ob-havo sharoiti oqibatida paxta hosildorligi past bo'lgan 49 fermer xo'jaligiga 612,4 million so'm, g'alladan kam hosil olgan 77 fermer xo'jaligiga 194,5 million so'm to'langan.

Xabarga ko'ra, kompaniya tomonidan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, g'alla va paxta hosilini sug'urtalash bo'yicha hisobotlar yuritish, sug'urta portfelini shakllantirish va tezkor boshqarishni yo'lga qo'yish maqsadida elektron dastur ishlab chiqildi.

"O'zagrosug'urta" DASK (OAJ) tomonidan 2014 yil "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan aholiga ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari ko'lamini yanada oshirish maqsadida imtiyozli sug'urta tariflarini qo'llagan holda "Bolalarni baxtsiz hodisalardan kompleks sug'urta qilish" (Sog'lom bola) deb nomlangan yangi sug'urta mahsuloti joriy etildi.

Sug'urta qildiruvchilarning 18 yoshgacha bo'lgan sug'urtalangan shaxs hayoti va sog'lig'iga bog'liq qonunchilikka zid kelmaydigan mulkiy manfaatlari sug'urta ob'ekti hisoblanadi.

Ushbu sug'urta turi buyicha sug'urta hodisasi sifatida quyidagilar tan olinadi:

- sug'urtalangan shaxslarning hohish irodasiga bog'liq bo'lmagan holda ularning baxtsiz hodisa - kutilmagan hodisalar natijasida tanasini jarohatlanishi, jarohatlanish natijasida tana a'zolarini ishlash funksiyasini o'zgarishi yoki o'limga olib keluvchi tabiatda bo'ladigan hodisalar: kuyish, muzlab qolish, cho'kish, (shamollash va kasallik tufayli vafot etishdan tashqari), elektr toki va yashin urishi, tabiat hodisalari, portlash hamda hayvonlar tajovuzi, tishlashi, chaqishi natijasida shikastlanishlar;

- g'araz niyatli shaxslarning hujumi;

- sug'urtalangan shaxsning yiqilishi yoki ustiga biror bir jismni tushib ketishi, jismning urilishi, transport vositalarining (avtomobil, poyezd, tramvay va boshqalarni) ag'darilishi yoki ularning harakati vaqtida yo'l transport hodisalarida, mashina, mexanizmlardan va boshqa turdagi asboblardan foydalanayotganda olingan jarohatlar, suyak sinishi, tasodifan nafas olish yo'liga biror narsa tiqilib qolishi;

- zaharli o'simliklar, kimyoviy moddalar ta'sirida kuchli zaharlanish, sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar bilan tasodifan zaharlanish;

- tasodifan suyak sinishi, chiqishi, bo'g'im va to'qimalarning uzilishi, tana a'zolarining to'liq yoki qisman yo'qotilishi, tana ensefaliti yoki emlashdan keyingi ensefalit (ensefalomiyelit) poliomiylit, gematogen osteomiylit;

- yuqumli kasalliklar (Virusli gepatit (sariq) "A", "V", "S" turlari, Dizenteriya (ichburug')) bilan kasallanish.

Mazkur sug'urta turi buyicha sug'urta puli miqdori baxtsiz hodisalar bo'yicha 2,0 mln. so'm va yuqumli kasalliklar bo'yicha 500 ming so'm miqdorida belgilanadi. Sug'urta tarifi miqdori muvofiq ravishda baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta pulidan 0.15 % va yuqumli kasalliklar bo'yicha sug'urta pulidan 0.4 % miqdorida belgilanadi. Sug'urta mukofoti miqdori baxtsiz hodisalar bo'yicha 3 ming so'mni va yuqumli kasalliklar bo'yicha 2 ming so'mni tashkil etadi.

Bundan maqsad 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni baxtsiz xodisalardan sug'urtalash ko'zda tutilgan bo'lib, ushbu sug'urta mahsulotini kompaniyaning barcha bo'linmalari orqali sotilishi rejalashtirilgan.

Respublika bo'yicha sug'urta xizmatlari ko'rsatish qamrovi yildan-yilga sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa, sug'urta kompaniyalarining sug'urta bozorida sug'urta mahsulotlarini taklif qilishi va mijozlarga sifatli sug'urta xizmatlari ko'rsatishi yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi.

Ushbu sohada amalga oshirilgan ishlar sarhisobiga bag'ishlangan matbuot anjumani "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi (OAJ) tomonidan o'tkazildi. Anjumanda "Majburiy sug'urta turlari bo'yicha olib borilgan ishlar to'g'risida" ma'lumot berildi.

Keyingi yillarda majburiy sug'urta turlari bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmat turlarining hajmi ortib bormoqda. Kompaniya tomonidan 2013 yil davomida yig'ilgan sug'urta mukofotlarining 50.1 foizi, ya'ni 30.9 mlrd. so'mi majburiy sug'urta turlari bo'yicha yig'ilgan. Bunda kompaniya tomonidan ish beruvchi va transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligani majburiy sug'urta qilish, qurilish-montaj ishlari vaqtidagi xatarlarni majburiy sug'urta qilish, xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish kabi majburiy sug'urtalar bo'yicha shartnomalar tuzilgan.

1-diagramma



Anjumanda takidlanganidek, 2008 yil 21 aprelda qabul qilingan "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijrosini ta'minlash borasida kompaniya tomonidan 2013 yil davomida kiruvchi qayta sug'urtalash bilan birga jami 734 467 sug'urta shartnomalari tuzilib, 22 mlrd. 238 mln so'mdan ortiq sug'urta mukofoti tushumi ta'minlandi.

Shartnomalar bo'yicha olingan javobgarlik hajmi qariyb 4 trillion 736 mlrd. so'mdan oshdi. 2012 yilning tegishli hisobot davriga nisbatan shartnomalar soni 79 173 taga yoki 112.1 foizga, sug'urta mukofotlari tushumi 3 mlrd 955 mln so'm yoki 122.9 foiz, sug'urta shartnomalari bo'yicha olingan sug'urta javobgarliklari 1 048 mlrd so'm yoki 128.4 foiz o'sishga erishildi. Shu bilan birga kompaniya tomonidan 2013 yil davomida majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha siylov olish huquqiga ega bo'lgan jami 24 745 ta fuqarolarga sug'urta mukofotlarini to'lashda qonunchilikda belgilangan 50 foizlik siylov berildi. Siylov tariqasida berilgan sug'urta mukofotlari hajmi 323.3 mln. so'mni tashkil



etdi.

Sug'urtaning ushbu turi bo'yicha 2013 yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami 1385 ta da'vo arizalari ko'rib chiqilib, 2 mlrd 105 mln. so'mdan ortiq sug'urta to'voni to'lab berildi. Shulardan 1 mlrd 920 mln so'mdan oshig'i yoki sug'urta tovonining 91.2 foizi jismoniy shaxslarga to'g'ri keldi.

Kompaniya tomonidan 2013 yil davomida ish beruvchining fuqarolik javobgarligani majburiy sug'urta qilish sug'urta turi bo'yicha 22 458 ta shartnoma tuzilgan bo'lib, 6 mlrd 883 mln so'mdan sug'urta mukofotlari tushumi ta'minlandi va shartnomalar bo'yicha olingan javobgarlik hajmi qariyb 5 trillion 125 mlrd so'mdan oshdi. Sug'urtaning ushbu turidan 64 ta da'vo arizalari ko'rib

chiqildi va jabrlanuvchilarga va vafot etgan xodimlarning mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolariga 1 mlrd 113 mln so'mdan oshiq sug'urta to'voni to'landi.

Shuningdek, xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yuz bergan holda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof-muxitga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda majburiy sug'urta qilinishi belgilangan.

Ushbu sug'urta turi bo'yicha kompaniya tomonidan 2013 yil davomida 778 ta shartnoma imzolaniib 1 mlrd 86 mln so'mdan ortiq sug'urta mukofoti tushumi ta'minlandi va shartnomalar bo'yicha olingan javobgarlik hajmi qariyb 1 trillion 141 mlrd so'mdan oshdi.

2.2 Sug'urta bozori infratuzilmasining rivojlanishida majburiy sug'urtaning roli va uning tahlili

Mamlakatimizda qulay makroiqtisodiy muhitning mavjudligi sug'urta bozorining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi hamda bir qator ijobiy natijalarga erishish uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Jumladan, 2008 yilning 22 oktyabridan kuchga kirgan "Transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi hamda 2009 yilning 17 oktyabridan kuchga kirgan "Ish beruvchining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari sug'urta bozorining rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytgan sug'urta bozorining rivojlanishida majburiy sug'urtaning o'rni beqiyosdir.

Majburiy sug'urta deganda - sug'urta munosabatlarini davlat qonunchilik shakli asosida amalga oshirilishiga aytiladi. Majburiy sug'urtaning o'ziga xos turlariga ega bo'lib, bular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Davlat majburiy sug'urta bu – davlat idorasida ishlaydigan xodimlar sug'urtasi hisoblanib, ushbu sug'urta turi bilan faqat davlat sug'urta kompaniyalari shug'ullanishga haqli. Majburiy davlat sug'urtasi bo'yicha sug'urta xizmat haqlari - sug'urta mukofotlari Davlat byudjeti mablaglari

hisobidai amalga oshiriladi. Hozirda ushbu sug'urta turi bilan 2003 yildan 1 yanvardan boshlab "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi shug'ullanib kelmoqmoqda.

- Transport vositalari egalarining uchinchi shaxslar oldidagi javobgarligi majburiy sug'urta qilish bu sug'urta turi bilan o'ndan ortiq sug'urtalovchi kompaniyalari tegishli litsenziya olgan.

- Ish beruvchilarning kasbiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish ushbu sug'urta turi bilan ham o'nga yaqin sug'urtalovchi kompaniyalar tegishli litsenziyaga ega.

- kurilish risklarini majburiy sug'urta qilish;
- xorijiy transport vositalari xaydovchilarining fukarolik javobgarligini majburiy sugurta qilish;
- yo'lovchilarni majburiy sug'urta qilish;
- davlat sud ekspertlarining hayoti va sog'lig'ini davlat tomonidan majburiy sug'urta qilish.

Transport vositalari egalarini majburiy sug'urta qilishning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- ❖ umumiylik;
- ❖ majburiylik;
- ❖ jabrlanuvchilarning xayoti, sogligi yoki mol-mulkiga etkazilgan zararining o'zni ushbu Qonunda belgilangan doirada koplanishi kafolatlanishi.

Hozirda respublikamizda 31 ta sug'urta kompaniyasi sug'urta faoliyatini amalga oshirib kelayotgan bo'lsa, ulardan 9 nafar transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta xizmatini amalga oshirib kelmoqda. Qolgan 22 nafar sug'urta kompaniya ushbu majburiy sug'urta turi bo'yicha tegishli litsenziyaga ega emaslar. Transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasini amalga oshirish uchun sug'urta kompaniyalariga talab o'rnatilgan. Ushbu talablar quyidagicha:

- ustav kapitaliga bo'lgan;

- sug'urta kompaniyalarining joylarda filiallariga ega bo'lishi.

Demak yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkinki, 9 nafar sug'urta kompaniyasini joylarda xususan viloyatlarda o'zining filiallariga ega ammo qolgan 22 nafar sug'urta kompaniyasi joylarda xususan viloyatlarda o'zining filiallariga ega emasligidan dalolat beradi. Shuning uchun qolgan sug'urta kompaniyalar ham yuqorida o'rnatilgan talablarga javob bersalar ham transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasini amalga oshirish huquqiga ega hisoblanadilar.

Shuningdek majburiy sug'urta sug'urtaning qonunchilik asosida majburiy shakli bo'lib hisoblanadi. Shu bois majburiy sug'urta ixtiyoriy sug'urtadan quyidagi xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi:

- sug'urta mukofotlarini ya'ni sug'urta tariflarini oldindan belgilanishi bilan;
- sug'urta qoplamalari oldindan tayinlanishi bilan;
- sug'urtalash printsipi bilan.

Majburiy sug'urtada sug'urta qoplamasi ya'ni sug'urta puli 3000 AQSh dollari ekvivalent summada qilib belgilangan bo'lib, ushbu sug'urta qoplamasini 35 foizi mol-mulk zararlanganligi uchun qoplansa qolgan 65 foizi esa fuqoroning o'limi uchun qoplanishi belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 7 maydagi "Umumiy foydalanishdagi havo, temir yo'l, ichki suv va avtomobil transporti yo'lovchilarining majburiy shaxsiy sug'urtasi to'g'risida"gi 866-XII-sonli Qonuni asosida majburiy shaxsiy sug'urta amaliyotga joriy etilgan bo'lib, mazkur qonunga asosan sug'urta muddati davomida ro'y bergan hamda baxtsiz hodisa to'g'risidagi hujjat, davolash-oldini olish muassasasining dalolatnomasi bilan tasdiqlangan shikastlanish, zaharlanish yoki halok bo'lish hollari sug'urta hodisasi hisoblanadi.

Shuningdek hozirda O'zbekiston sug'urta bozorida 9 nafar sug'urta kompaniyasi transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasini amalga oshirib kelmoqdalar. Ushbu sug'urta kompaniyalari ushbu sug'urta turi bo'yicha o'zlarining tegishli litsenziyalari asosida sug'urta faoliyatini amalga oshirmoqdalar. Mazkur sug'urta kompaniyalarining

litsenziyalashga qo'yilgan talabalar xususan eng kam ustav kapitaliga hamda hududlarda filiallarini tashkil etilganligiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Sug'urta sohalari bo'yicha sug'urtalovchilarning eng kam ustav kapitali miqdori 2010 yil 26 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Qarorining № PP-1438 sonli Qaroriga asos belgilandi (1 -jadvalga qarang).

1-jadval

Sug'urtalovchilarning nizom jamg'armasiga qo'yilayotgan eng kam talablar⁸ (ming evro ekvivalent summada)

Sug'urta faoliyati turlari	Qo'yilgan talablar	2012 yil 1 iyuldan boshlab	2014 yil 1 iyuldan boshlab
Umumiy sug'urta tarmog'i bo'yicha	750	1125	1500
Hayot sug'urta tarmog'i bo'yicha	1000	1500	2000
Majburiy sug'urta tarmog'i bo'yicha	1500	2250	3000
Faqat qayta sug'urta tarmog'i bo'yicha	4000	5000	6000

1-jadvalda sug'urtalovchilarning nizom jamg'armasiga qo'yilayotgan eng kam talablar keltirib o'tilgan bo'lib, unda qo'yilgan talab bo'yicha ustav kapitalini eng ko'p miqdori majburiy sug'urta va qayta sug'urta tarmog'iga to'g'ri kelmoqda. Chunki majburiy sug'urta tarmog'i va qayta sug'urta tarmog'iga sug'urta xizmatlari bo'yicha olinadigan javobgarlik hamda risklilik darajasi yuqori bo'lganligi uchun ham eng ko'p ustav kapitali miqdoriga to'g'ri kelmoqda.

Transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini sug'urtalashning tartibini belgilash orqali jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni kafolatlaydi. Mazkur qonunning o'ziga xos jihatlaridan biri – sug'urtalashning majburiyligi bo'lib, bunday tartib, birinchi navbatda, yo'l-transport hodisasi tufayli jabrlangan fuqorolarning hayoti va sog'ligini muhofaza qilish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy yo'qotishlari o'rnini o'z

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 maydagi 1544-sonli Qarori "Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 22-23-son.

vaqtda qoplash va buzilgan huquqlarini tiklanishini nazarda tutadi. Shu bilan bir qatorda mazkur qonunning ahamiyatli jihatlaridan biri, majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta zahirasi shakllantirish lozimligi belgilangan. Unga ko'ra, agar majburiy sug'urtani amalga oshirish paytida mazkur sug'urta turi bo'yicha sug'urtalovchining daromadlari va xarajatlari orasida farq bir yilda ko'rsatilgan daromadlarning 5 foizidan ortiq bo'lsa, ortiq summa sug'urtalovchi tomonidan keyingi yillarda sug'urta to'lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun sug'urta zaxirasini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Ayni paytda O'zbekiston sug'urta bozorida majburiy sug'urta xizmatini ko'rsatishga qodir 9 ta sug'urta kompaniyasi transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasini amalga oshirib, ular tomonidan to'langan sug'urta qoplamalari to'lab berilgan (2-jadval).

2-jadval

2012 yilda sug'urta bozorida transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha to'langan sug'urta qoplamalari⁹

t/r	Sug'urta kompaniyalari	To'langan sug'urta qoplamalari (mln so'mda)	Ulushi (%da)
1	O'zagrosug'urta	1899,0	31,5
2	Alfa invest	1082,3	18,0
3	Kafolat	897,4	14,9
4	Kapital sug'urta	759,2	12,6
5	Azia inshurans	736,0	12,2
6	Alskom	261,0	4,3
7	O'zbekinvest	208,5	3,5
8	Ishonch	96,3	1,6
9	Unversal sug'urta	87,3	1,4

2-jadvalda 2012 yilda transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta kompaniyalari tomonidan to'langan

⁹ BBV 2013 yil 28 yanvar №15-son 3-bet.

sug'urta qoplamalari to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Unda transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha 9 ta sug'urta kompaniyasi ichida sug'urta qoplamalarini eng ko'p amalga oshirgan "O'zagrosug'urta", "Alfa invest", "Kafolat", "Kapital sug'urta" sug'urta kompaniyalari ulushiga to'g'ri kelmoqda. Chunki ushbu sug'urta kompaniyalarning hududlar miqiyosida filiallari ham juda ko'p bo'lganligi sababli ular tomonidan yig'iladigan sug'urta mukofotlari ham juda ko'p bo'lib, unga nisbatan sug'urta qoplamalarini to'lash majburiyati ham shuncha ko'pdir.

Sug'urta bozorida 2012 yilda transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari, tuzilgan sug'urta shartnomalar soni va qoniqtirilgan sug'urta da'volari keltirib o'tilgan (3-jadval).

3-jadval

Transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari¹⁰

t/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2011 yil	2012 yil
1.	Yig'ilgan sug'urta mukofotlari	mln so'mda	38573,6	45362,5
2.	Tuzilgan shartnomalar soni	ming birlikda	1404,7	1522,7
3.	Qoniqtirilgan da'volar	mln so'mda	6171,5	6027,0

3-jadvalda, transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan bo'lib, unda 2011 yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlari 38573,6 mln.so'mni, 2012 yilda 45362,5 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012 yilda 2011 yilga nisbatan 6788,9 mln.so'mga ko'pdir. Shu bilan bir qatorda tuzilgan sug'urta shartnomalar soni 2011 yilda 1404,7 mln.so'mni, 2012 yilda 1522,7 mln.so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2012 yilda 2011 yilga nisbatan sug'urta shartnomalari 118 taga oshgan. Transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta bo'yicha qoniqtirilgan da'volari 2011 yilda

¹⁰ BBV 2013 yil 28 yanvar №15-son 3-bet.

6171,5 mln.so'mni, 2012 yilda 6027,0 mln.so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2012 yilda 2011 yilga nisbatan 144,5 mln.so'mga kamdir.

Shuningdek sug'urta bozorida transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasini amalga oshiruvchi sug'urta kompaniyalari tomonidan tuzilgan shartnomalar soni hamda yig'ilgan sug'urta mukofotlari yildan-yilga o'sib bormoqda (4-jadval).

4-jadval

2012 yilda transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasini amalga oshiruvchi sug'urta kompaniyalari tomonidan tuzilgan shartnomalar soni, yig'ilgan sug'urta mukofotlari to'g'risida ma'lumot¹¹

t/r	Sug'urta kompaniyalari	Sug'urta shartnomalari (dona)	Ulushi (%da)	Yig'ilgan sug'urta mukofotlari (mln so'mda)	Ulushi (%da)
1	O'zagrosug'urta	627835	41,2	16218,4	35,8
2	Alfa invest	252492	16,6	8135,5	17,9
3	Kafolat	184519	12,1	5868,7	12,9
4	Kapital sug'urta	125008	8,2	4218,1	9,3
5	Azia inshurans	104443	6,9	2999,8	6,6
6	Alskom	83786	5,5	2959,2	6,5
7	O'zbekinvest	77709	5,1	2708,5	6,0
8	Ishonch	40341	2,6	1321,5	2,9
9	Unversal sug'urta	26614	1,7	932,8	2,1


4-jadvalda transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasini amalga oshiruvchi sug'urta kompaniyalari tomonidan tuzilgan shartnomalar soni hamda yig'ilgan sug'urta mukofotlari to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Unda transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasini amalga oshiruvchi 9 ta sug'urta kompaniyasi ichida ham eng ko'p tuzilgan sug'urta shartnomalar soni va yig'ilgan sug'urta mukofotlari "O'zagrosug'urta", "Alfa invest", "Kafolat", "Kapital sug'urta" sug'urta

¹¹ BBV 2013 yil 28 yanvar №15-son 3-bet.

kompaniyalarining ulushi to'g'ri keladi. Shu bilan bir qatorda transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlarining o'sishiga e'tiborni qaratmog'imiz lozim (3-diagramma).

3-diagramma

Transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlarini o'sish dinamikasi (mln so'mda)¹²



Yuqorida keltirilgan 3-diagrammada transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlari bo'yicha ma'lumotlar o'z aksini topgan. Ushbu diagrammani tahlil qiladigan bo'lsak agar, 2009 yilda transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari 31083 mln.so'mni va sug'urta to'lovlari 3565,1 mln.so'mni tashkil etgan bo'lib, ushbu holat 2010 yilda sug'urta mukofotlari 32524,1 mln.so'm sug'urta to'lovlari 5252,3 mln.so'mni tashkil qilmoqda. Tahlil natijasi shundan dalolat bermoqdaki, 2010 yilda sug'urta mukofotlari 2009 yilga nisbatan 1441,1 mln.so'mga ko'pdir. Shu tarzda 2011 yilda transport vositalari egalarini fuqorolik


¹² BBV 2013 yil 28 yanvar №15-son 3-bet.

javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari 38573,6 mln.so'mni va sug'urta to'lovlari 6171,5 mln.so'mni tashkil etgan. 2012 yilda transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari 45362,5 mln.so'mni tashkil qilib, sug'urta to'lovlari 6027 mln.so'mni tashkil etgan.

Shu bilan birga transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta polislar soni va qanoatlantirilgan sug'urta da'volari ham o'ziga xos ahamiyatga ega (4-diagramma).

4-diagramma

Transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta polislar soni va qanoatlantirilgan sug'urta da'volari dinamikasi (mingso'mda)¹³




4-diagrammada transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta polislar soni va qanoatlantirilgan sug'urta da'volari to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Unda 2009, 2010, 2011 yillarda sug'urtalovchilar tomonidan qoniqtirilgan sug'urta da'volari o'sib borib, 2012 yilda qoniqtirilgan sug'urta da'volari bir oz pasaygan. Shu bilan bir qatorda sug'urta polislar soni faqat 2010 yilda juda kam bo'lib, 2011-2012 yillarda ushbu ko'rsatkich juda yuqori bo'lgan. Shu bilan bir qatorda 2012 yilda hududlar bo'yicha transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini

¹³ BBV 2013 yil 28 yanvar №15-son 3-bet.

majburiy sug'urtasi bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan (5-diagramma).

5-diagramma

2012 yilda hududlar bo'yicha transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari (mln so'mda)¹⁴




5-diagrammada hududlar bo'yicha transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan. Ushbu diagrammaga nazar tashlaydigan bo'lsak, viloyatlar miqiyosida transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlarining eng ko'p ulushi Toshkent shahar, Toshkent viloyati, Samarqand viloyati, Farg'ona viloyati, Andijon viloyati hamda Buxoro viloyatlariga to'g'ri keladi. Chunki ushbu viloyatlarda aholi sonining ko'pligi va ung mos transport vositalarini ham ko'pligi transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofotlarini ko'p yig'ilishiga sabab bo'lgan. Shu bilan birga, 2012 yilda hududlar bo'yicha transport vositalari

¹⁴ BBV 2013 yil 28 yanvar №15-son 3-bet.

egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta to'lovlari ham amalga oshirilgan (6-diagramma).

6-diagramma

2012 yilda hududlar bo'yicha transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari (mln so'mda)¹⁵



6-diagrammada hududlar bo'yicha transport vositalari egalarini fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari keltirilgan. Ushbu diagrammada keltirilgan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, unda hududlar bo'yicha eng ko'p amalga oshirilgan sug'urta to'lovlari Toshkent shahari, Toshkent viloyati, Namangan viloyati, Andijon viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Chunki ushbu viloyatlarda yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmiga nisbatan sug'urta javobgarligi ham yuqori bo'lgan.

Shuningdek 2011-2012 yillarida sug'urta bozorida transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar keltirib o'tilgan (5-jadvalga qarang).

5-jadval

¹⁵ BBV 2013 yil 28 yanvar №15-son 3-bet.

Yuridik va jismoniy shaxslarning transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashga oid asosiy ko'rsatkichlar¹⁶

t/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2011 yil		2012 yil (1 mart holatiga)	
			Yuridik shaxslar	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar	Jismoniy shaxslar
1.	Kelib tushgan sug'urta mukofoti	mlrd.so'm	7,3	26,5	8,3	31,7
2.	Sug'urta polislari soni	dona	153 088	1 148 473	154 595	1 303 131
3.	Sug'urta summasi	mlrd.so'm	716,8	5 380,4	788,0	6 631,5
4.	Qoniqtirilgan da'volar soni	dona	828	3 891	824	4 125
5.	Qoniqtirilgan da'volar summasi	mlrd.so'm	0,9	4,4	1,0	5,2
6.	Berilgan siylovlar soni	dona	-	81 518	-	75 264
7.	Berilgan siylovlar summasi	mln.so'm	-	963,3	-	953,9

5-jadvalda yuridik va jismoniy shaxslarning transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashga oid asosiy ko'rsatkichlar keltirib o'tilgan bo'lib, unda 2011 yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlari yuridik shaxslar ulushiga 7,3 mlrd so'm , jismoniy shaxslar ulushiga 26,5 mlrd.so'm, 2012 yilda yuridik shaxslar ulushiga 8,3 mlrd.so'm., jismoniy shaxslar ulushiga 31,7 mlrd.so'm., 2011 yilda sug'urta polislari soni yuridik shaxslarga 153088 tasi, jismoniy shaxslarga 1148473 tasi, 2012 yilda bu ko'rsatkich, yuridik shaxslarga 154595 tasi, jismoniy shaxslarga 1303131 tasi to'g'ri keladi. Shu bilan bir qatorda 2011 yilda sug'urta summasi yuridik shaxslarga 716,8 mlrd.so'mi, jismoniy shaxslarga 5380,4 mlrd.so'mi to'g'ri kelsa, bu ko'rsatkich 2012 yilga kelib, yuridik shaxslarga 788,0 mlrd.so'mni., jismoniy shaxslarga 6631,5 mlrd so'mni tashkil etsa, 2011 yilda qoniqtirilgan da'volar soni yuridik shaxslarga 828 tasi, jismoniy shaxslarga 3891 tasi, 2012 yil holati bo'yicha bu ko'rsatkich, yuridik shaxslarga 824 tasi, jismoniy

¹⁶ Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasining 2011/2012 yil hisoboti materiallaridan kelib chiqib tayyorlangan.

shaxslarga 4125 tasi to'g'ri keladi. Shuningdek, 2011 yilda qoniqtirilgan da'volar summasi yuridik shaxslarga 0,9 mlrd.so'mni., jismoniy shaxslarga 4,4 mlrd.so'mni, 2012 yil holati bo'yicha bu ko'rsatkichlar, yuridik shaxslarga 1,0 mlrd.so'mni., jismoniy shaxslarga 5,2 mlrd.so'mni to'g'ri kelsa, 2011 yilda berilgan siylovlar soni, faqat jismoniy shaxslarga 81518 tani, 2012 yilda bu ko'rsatkich 75264 tani tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda berilgan siylovlar summasi faqat jismoniy shaxslarga 963,3 mln.so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2012 yilga kelib, 953,9 mln.so'mni tashkil qilmoqda. Yuqoridagi satrlarda keltirib o'tilgan mulohazali fikrlardan shu narsa amin bo'ldikki, fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash yuridik shaxslarga siylov berilmagan. Chunki transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonunida, faqat jismoniy shaxslarga siylovlar berilishi keltirib o'tilgan. Ushbu siylovlari sababi faqat jismoniy shaxslarda aniqlangan va asoslanganligidan dalolat beradi.

Quyidagi jadvalda 2013 yil I chorak yakunlari bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'plash bo'yicha birinchi o'ntalikka kirgan sug'urta tashkilotlari ro'yxati keltirilgan.

6-Jadval ¹⁷

**2013 yil I chorak yakunlari bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'plash
bo'yicha bozor etakchilari**

t/r	Sug'urta tashkilotlari	Bozordagi ulushi
1.	“O'zagrosug'urta”	17,0
2.	“O'zbekinvest”	11,6
3.	“Alfa Invest”	9,0
4.	“Aziya Inshurans”	7,5
5.	“Kafolat”	7,0
6.	“UVT insurance”	5,0
7.	“Kapital Sug'urta”	4,0
8.	“Alskom”	3,7
9.	“Temir yo'l - sug'urta”	2,7
10.	“O'zbekinvest Hayot”	2,2

¹⁷ www.mif.uz


	Boshqa sug'urta tashkilotlari	39,9
	Jami	89,3

Sug'urta tashkilotlari tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha olingan sug'urta majburiyatlari.

2013 yil I chorak yakunlari bo'yicha 6 mln. ta sug'urta shartnomalari tuzilgan va tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha 117 trln.so'm miqdorida sug'urta majburiyatlari olingan.

Sug'urta qoplamalari xajmi. 2013 yil I chorak yakunlari bo'yicha sug'urta qoplamalari 11,4 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2012 yilning I choragiga nisbatan 39,6% ga oshgan.

7-Diagramma



Sug'urta qaplamalari dinamikasi¹⁸


Oxirgi yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida keskin rivojlanish ro'y berdi. Shuni inobatga olish kerakki, bozorning rivojlanishida uning ishtirokchilari o'rtasidagi sog'lom raqobatning vujudga kelishi va uning oqibatida sug'urta tariflarining pasayishi sodir bo'ldi. Bu xolatning albata salbiy va ijobiy taraflari mavjud. Bir tarafdin sug'urta tariflarining pasayishi sug'urtaning ko'lamini

¹⁸ www.mif.uz

kengayishiga olib kelsa, ikkinchidan sug'urta tashkilotlarining kapitalizastiyasining kamayishiga olib keladi.

8-diagramma

TVEFJMS bo'yicha sug'urta shartnomalarini tuzishda sug'urta kompaniyalarining ulushi¹⁹
(2013yil bo'yicha foizda)



8-diagrammada, transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini sug'urtasi bo'yicha 2013 yilda sug'urta kompaniyalar tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalar to'g'risida ma'lumot keltirib o'tilgan. Unda "O'zagrosug'urta" DASK, "Kafolat" DASK, "Kapital sug'urta" va "Alskom" sug'urta kompaniyalari transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini sug'urtasi bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalari tuzishda etakchilik qilib kelmoqda.

7-jadval

Transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha faoliyat olib borayotgan sug'urta kompaniyalari kesimida asosiy ko'rsatkichlar²⁰
(2014 yil 1 aprel holati bo'yicha)

t/r	Sug'urta	Tuzilgan sug'urta	Kelib	Qondirilgan
-----	----------	-------------------	-------	-------------

¹⁹ www.mif.uz

²⁰ Халқ сўзи газетаси 2014 йил 25 апрель, №80

	kompaniyalari	shartnomalari soni (dona)	tushgan sug'urta mukofotlari (mln.so'm)	sug'urta da'volari (mln.so'm)
1.	“O‘zagrosug’urta” DASK	209334	6160,3	312,7
2.	“Kafolat” DASK	91879	3571,4	373,1
3.	“O‘zbekinvest” EIMSK	24559	933,1	88,8
Davlat ulushi mavjud kompaniyalar bo'yicha, JAMI:		325772	10664,8	774,6
4.	OAQ “Kapital sug'urta”	44712	1446,1	156,5
5.	OAQ SK “Alskom”	35084	1517,5	483,8
6.	SOZAO “Alfa invest”	27492	1144,4	148,0
7.	SK OOO “Asiya inshurans”	17850	670,5	17,2
8.	ZOA “Unversal sug'urta”	10020	391,0	106,5
9.	OOOMSK “Ishonch”	40000	1469,3	110,4
Boshqa kompaniyalar bo'yicha, JAMI:		175158	6638,8	1022,3
JAMI		500930	17303,6	1797,0

Respublikamiz sug'urta bozorida 2014 yilning birinchi choragi mobaynida sug'urta kompaniyalari tomonidan jami majburiy sug'urta turi bo'yicha 500930 dona sug'urta polisi rasmiylashtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan 2013 yilning shu davridagiga nisbatan 101,2 foizni tashkil etdi. Ushbu davrda qabul qilingan sug'urta majburiyatlari hajmi esa jami 3330,8 mlrd.so'mga ya'ni 111,8%ga tengdir.

2014 yilning birinchi choragi mobaynida sug'urta kompaniyalari tomonidan jami 1158 dona (121,5%) umumiy summasi 1797,0 mln.so'mga (127,0%) teng sug'urta da'vosi qoniqtirilgan bo'lib, 14 dona (107,7%) umumiy summasi 27,1 mln.so'mlik (84,2%) sug'urta da'vosi qoniqtirilmadan qoldirildi.

Hududlar kesimida yig'ilgan sug'urta mukofotlari bo'yicha Toshkent shahri va Toshkent viloyati etakchilik qilib kelmoqda. Ular mutanosib ravishda

sugʻurta bozorining 24,7% va 10,9% ulushini egallagan. Eng kam ulushlar Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida boʻlib, mos ravishda 1,3% va 2,0%ni tashkil qiladi. Qolgan hududlar ulushlari quyidagi 2jadval maʼlumotlarida keltirilgan.

8-jadval

Transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha asosiy koʻrsatkichlar respublikamiz hududlari kesimida²¹
(2014 yil 1 aprel holati boʻyicha)

t/r	Hududlar	Tuzilgan sugʻurta shartnomalar soni (dona)	Kelib tushgan sugʻurta mukofotlari (mln.soʻm)	Qondirilgan sugʻurta daʼvolari (mln.soʻm)
1.	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	21996	593,0	54,4
2.	Andijon viloyati	37509	1196,3	49,6
3.	Buxoro viloyati	44532	1373,2	13,7
4.	Jizzax viloyati	13614	351,8	30,8
5.	Qashqadaryo viloyati	41045	1081,2	9,7
6.	Navoiy viloyati	18714	541,2	5,9
7.	Namangan viloyati	30367	981,9	62,3
8.	Samarqand viloyati	48478	1547,9	18,7
9.	Surxondaryo viloyati	24135	698,0	6,9
10.	Sirdaryo viloyati	9124	219,6	26,5
11.	Toshkent viloyati	49226	1877,9	176,0
12.	Fargʻona viloyati	44705	1691,5	30,2
13.	Xorazm viloyati	33115	871,7	0,0
14.	Toshkent shahri	84370	4278,3	1312,3

2014 yilning birinchi choragi mobaynida sugʻurta kompaniyalari tomonidan sugʻurta mukofoti boʻyicha 47161 sugʻurtalovchiga 748,6 mln.soʻm miqdorida siylovlar berildi. Ushbu davrda Toʻlovlarni kafolatlash jamgʻarmasi tomonidan sugʻurta kompaniyalari jamgʻarmaga taqdim etgan hujjatlar asosida 7040 ta sugʻurta shartnomasi boʻyicha 107,3 mln.soʻmlik siylovlar kompensatsiya qilindi. Toʻlovlarni kafolatlash jamgʻarmasi tomonidan yoʻl-transport hodisasi oqibatida jabrlanganlarga etkazilgan zararni qoplash toʻgʻrisidagi 93 ta

²¹ Халқ сўзи газетаси 2014 йил 25 апрель, №80

iltimosnoma bo'yicha 203,46 mln.so'm miqdorida kompensatsiya to'lovlari amalga oshirildi.

II bob bo'yicha xulosa

Oxirgi yillarda sug'urta faoliyatini amalga oshirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari takomillashtirish bilan bir qatorda sug'urta bozori infratuzilmasini kengaytirishga bo'lgan e'tibor ham hukumatimiz nazaridan chetda qoldirilmadi. Buning asosiy sababi shundaki, oxirgi iqtisodiyot tarmoqlari kengaydi va aholi soni ortganligi sug'urta xizmatiga bo'lgan talabni oshirish zaruratini keltirib chiqardi. Buni biz 2-bobda tahlil etilgan sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlari hamda sug'urtalanuvchilarga sug'urtalovchilar tomonidan qoplab berilgan sug'urta qoplamalari shu bilan bir qatorda sug'urtalovchilar tomonidan olingan sug'urta majburiyatlaridan xulosa chiqarish mumkin.

III BOB. SUG'URTALOVCHILAR UYUSHMASI SUG'URTA BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLINI OSHIRISH MASALALARI

3.1 Sug'urtalovchilar uyushmasi sug'urta bozorini rivojlanishidagi rolini oshirishda mavjud muammolar

O'zbekistonda sug'urtalovchilar uyushmasi sug'urta bozorini rivojlanishidagi rolini oshirishda mavjud muammolar mavjud. Mazkur muammolarni bartaraf etish juda muhim ahamiyatga ega. SHuningdek mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri joylarda raqobat muhitini shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi.

Sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi aksariyat ekspertlar va taxlilchilarning fikriga ko'ra, mamlakatimiz mintaqalarida raqobat muhiti sust ko'rinishga ega. Eng achinarlisi, aksariyat qishloq tumanlarida sug'urta xizmatlarini ko'rsatish hamon yagona sug'urtalovchi- "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining tuman bo'limlari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Haqiqatda, unga raqobatda bo'ladigan tuman bo'limlari aksariyat sug'urta tashkilotlari tomonidan joylarda tashkil etilmagan. Ayni chog'da bu vaziyat to'liq barcha viloyatlarga tegishlidir.

Demak, bayon etilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining viloyat markazlarida sug'urta xizmatlari bozori biroz rivojlangan bo'lib, chekka qishloq tumanlarida sug'urtalovchilarning sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan bo'linmalari etarli darajada tashkil etilmagan. Bu o'z navbatida mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorini bir tekisda rivojlanishiga halaqit bermoqda.

Magistrlik dissertatsiyasining oldingi boblarida amal oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasining birorta hududida yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatmaydi. Mavjud sug'urta tashkilotlarining barchasi poytaxtda - Toshkent shahrida ro'yxatga olingan va ular mamlakat mintaqalarida sug'urta xizmatlarini tegishli filial va bo'linmalari orqali ko'rsatadilar. Nazarimizda, mintaqaviy sug'urta xizmatlarini bozorini yanada rivojlantirish maqsadida joylarda mustaqil sug'urta tashkilotlarini tuzish maqsadga muvofiq. Buning uchun tijorat banklari, kredit uyushmalarining ustav fondiga belgilanganidek, tabaqalashtirilgan ustav fondining eng kam miqdorlarini o'rnatish maqsadga muvofiq. YA'ni, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatadigan sug'urtalovchilar uchun alohida, mintaqalarda faoliyat ko'rsatadigan sug'urtalovchilar uchun alohida ustav fondining eng kam miqdorlarini belgilash lozim.

Hozirgi kunda respublikamizning umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urtalovchilar uchun ustav fondining eng kam miqdori 1,5 mln.

evro ekvivalentidagi summada belgilangan. Biz bu miqdorni poytaxtda tashkil etiladigan sug'urtalovchilar uchun tatbiq etgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlarda tashkil etiladigan sug'urtalovchilar uchun uning 50 foizi miqdorida, ya'ni 375,0 ming evro atrofida belgilashni taklif etamiz. Nazarimizda, viloyatlarda tashkil etiladigan sug'urta tashkilotlari uchun bunday tartibini joriy etilishi mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishdagi asosiy omillar qatoriga sug'urta polislarini sotish kanallarini kengaytirishni hamda sug'urta polislarini sotishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llashni kiritish mumkin.

Sug'urta agenti mijoz bilan o'zaro foydali muloqot o'rnatish uchun quyidagi oltita muhim omilni e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim:

- o'zaro hayrixohlik. Bu sifat yaxshi ish munosabatlarini o'rnatish uchun muhim shart hisoblanadi. Muruvvatlilik, manfaatlarning umumiyligi hayrixohlikni oshiradi.

- tomonlarning bir-biriga hurmati. Savdo munosabatlari mustahkam bo'lishining yana bir muhim sharti bu hamkorlarning bir-biriga bo'lgan hurmatidir.

- tomonlarning bir-biriga o'zaro ishonchi. Sotish texnologiyasining muvaffaqiyati hamkorlarining bir-biriga ishonchi o'zaro ochiqchilik, vijdonda, hulqining «tiniq»ligida, tartibliligida va ishonchliligida bilinadi.

- o'zaro tirishqoqlik. Sug'urta mahsulotlarini sotuvchi sifatida agent hamma kuch-g'ayratini mijoz bilan yaxshi muomalada bo'lishga qaratishi lozim. Darhaqiqat, mijozni qiziqitmay turib, agent umumiy qo'yilgan maqsad yo'lida hech qanday o'zgarish qilolmaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, sug'urta agenti mijozga do'st bo'lishi, buning ustiga uning muammolarini echishga yordam berishi, uning har qanday istaklarini bajarishga harakat qilishi kerak. Vazmin va bosiq bo'lish hamda kamgaplik savdo munosabatlari muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi. SHuningdek, sug'urta agentining mijoz bilan suhbat olib borish mahoratini, bir-birlarining ish faoliyatiga o'zaro qiziqishlarini

moslashuvchanlik, oliyjanoblilik va mustaqil bo'lish kabi fazilatlarni sotuv jarayonida ijobiy natijaga erishishning zarur shartlaridan biri sifatida ta'kidlash joiz.

- sotuvchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarning jadalligi. SHuni yoddan chiqarmaslik kerakki, o'zaro munosabatlar ikkala tomon bir-biri bilan doimiy muloqotda bo'lib turgandagina yaxshilanadi. Agar sug'urta mahsulotlarini sotuvchi agent mijozlar bilan muntazam yaxshi va mustahkam aloqada bo'lib turish imkoniyatini topa olmasa, u holda hamma e'tiborni va harakatlarni katta daromad keltiruvchi mijozlarga qaratishi kerak. Mutaxassislarning ma'lum qilishicha, sug'urta agenti bir paytning o'zida beshtadan ortiq bo'lmagan mijozlar bilan haqiqatda yaxshi va mustahkam aloqada bo'la oladi.

- puxta bilimli bo'lish. Sug'urta agenti o'z kompaniyasini mijozga tanishtirish jarayonida unga kompaniyaning erishgan yutuqlari va ijobiy tomonlari haqida xaqida so'z ochadi. Agarda agent o'zini puxta bilim egasi qilib ko'rsata olmasa, mijoz bilan bo'ladigan hamma yaxshi munosabatlari izdan chiqadi.

SHunday qilib, sotuvchi va mijoz o'rtasida qaror topgan o'zaro ishonch, mijoz haqidagi muammolar to'g'risidagi axborotga ega bo'lish, bu muammolarning to'g'ri echimini ko'rsatish, oxir-oqibatda sug'urta mahsuloti sotilishiga sharoit yaratadi.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi davlat olib borayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Sug'urta ana shu tizimda o'ziga xos o'rinni egallashi uchun bir qator muammolarni hal etish lozim.

Birinchidan, respublika aholisining qariyb 65 foizi qishloq xududlarda istiqomat qilishi sir emas. Qolaversa, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, ko'p bolali va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining salmoqli qismi ham aynan shu xududlarga to'g'ri keladi. Qishloqda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining asosiy daromad manbalari, faqat, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan nafaqa va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan beriladigan pensiyalarga

qaratilgan. Bu holat, o'z-o'zidan qishloq joylarda istiqomat qiladigan aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida sug'urta mexanizmidan samarali foydalanish yo'llarini izlab topishni taqozo qiladi. Bu muammoni hal etish oson ish emas. Chunki, sug'urta har qanday shaklda va usulda amalga oshirilmasin, pulli xizmat bo'lib qolaveradi. Shunday ekan, to'lov qobiliyati past darajada va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini sug'urta himoyasiga qamrab olish uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

To'lov qobiliyati past va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini, ayniqsa, qishloq joylarda istiqomat qiladigan aholini sug'urta qilish uchun ushbu yo'nalishda sug'urta xizmatlarini ko'rsatmoqchi bo'lgan sug'urta tashkilotlariga soliqdan imtiyozlar berishni taklif etamiz. Albatta, bu taklif vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, turmush darajasining oshishi barobarida, keyinchalik bu imtiyoz bekor etilishi mumkin.

Ikkinchidan, biz bilamizki, sug'urtaning barcha turi u yoki bu darajada ijtimoiy himoya bilan uzviy bog'langan. Gap aholini sug'urta qilish bilan bog'liq sug'urta xizmatlari haqida ketayotir. Aholining ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq sug'urta xizmat turlariga fuqarolarni kollektiv yoki yakka tartibda baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish, tibbiy sug'urta, fuqarolarni kasalliklardan sug'urta qilishni kiritish mumkin. Albatta, respublikamizdagi mavjud sug'urta kompaniyalarining aytarli barchasi fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish bilan shug'ullanadi. Bu chakana sug'urta xizmati hisoblanadi va har bir shaxsga individual yondashuvni talab etadi. Bir tomondan, sug'urta xizmatini ko'rsatishda shaxsning istak-xoxishlarini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega, ikkinchi tomondan, bunday tartibda ishlash sug'urta tashkiloti tasarrufida anchagina sug'urta agentlari tarmog'i faoliyat ko'rsatishini talab etadi. Afsuski, O'zbekiston sug'urta bozorida agentlik tarmoqlari sonining o'sishi kuzatilayotgan bo'lsada, hali-beri bu aholining keng qatlamlarini sug'urta himoyasiga qamrab olish uchun etarli darajada emas. Hanuzgacha, respublikamizning markazdan ancha uzoq bo'lgan joylarida faqat "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining bo'linmalarini

uchratish mumkin. Aksariyat sug'urta tashkilotlari shahar joylarda tegishli filiallarga ega bo'lib, ularning qishloq tumanlarida shaxobchalari mavjud emas. Holbuki, qishloq joylarda istiqomat qiladigan aholining sug'urta xizmat turlarini raqobatga asoslangan holda ko'rsatish yuqorida nomi keltirilgan sug'urta kompaniyasi bilan bir qatorda boshqa sug'urta tashkilotlarining ham bo'linmasi tashkil etilishini taqozo etadi. SHundan kelib chiqqan holda sug'urta mexanizmidan samarali foydalanishni tashkil etish uchun respublika hudularida agentlik shaxobchalarini ko'paytirish lozim.

Mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishda ushbu xizmat bilan bog'liq axborotlarning ochiqqligini ta'minlash, qolaversa, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holati, tarif stavkalari, sug'urta qilish qoidalari kabi ma'lumotlarni olishda muammolarning bo'lmasligi muhim rol uynaydi. To'g'ri keyingi yillarda sug'urta bozorining ochiq-oydinligini ta'minlash, sug'urta tashkilotlari va ularning operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni keng xalq ommasi e'tiboriga etkazish borasida jiddiy ijobiy qadamlar tashlandi.

Aholining turli axborot manbalari, xususan, "Internet" global tarmog'i orqali sug'urta faoliyatiga oid axborotlar olish imkoniyati kengaydi. 2009 yildan boshlab respublikamizda "Sug'urta" jurnalining chop etilishi, "UzReport.com" internet portalida O'zbekiston sug'urta bozorida sodir bo'layotgan yangiliklarni muntazam e'lon qilib borilishi sug'urta bozorining umumiy holati bilan bog'liq axborotlarning foydalanuvchilar tomonidan olinishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ammo, mamlakatimiz mintaqalarida sug'urta bozori va uning rivojlanishi bilan bog'liq axborotlar etarli emas. Boz ustiga aksariyat axborotlar rus va chet tillarida mavjud. Bu holat ham mintaqalarda sug'urta faoliyati va bozori to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'proq davlat tilida e'lon qilib borilishini talab etadi. Bunga yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, amaldagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunga asosan sug'urta tashkilotlari moliya yili yakunlari bo'yicha yillik hisobotlarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilib borishlari lozim. Amalda esa kamdan-kam sug'urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlari bilan matbuot orqali tanishish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

SHuni e'tiborga olgan holda sug'urta bozorini davlat tomonidan nazorat qilish va tartibga solish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bu muammoga o'z e'tiborini qaratadi hamda shunday tartib o'rnatadiki, unga ko'ra barcha sug'urtalovchilar vakolatli davlat organi belgilagan shakllarda va tartibda o'z moliyaviy hisobotlarini ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilib boradilar. Bu o'z navbatida mamlakatimiz mintaqalarida aholining sug'urtaga bo'lgan munosabatlari va bilimlarini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

3.2 Sug'urtalovchilar uyushmasi sug'urta bozori rivojlanishidagi rolini oshirish masalalari

Respublikamizda sug'urta xizmatlari bozorini taraqqiy ettirish, tarmoqda bozor mexanizmlarini keng ko'lamda joriy etish yuzasidan e'tirof etishga arzigulik ishlar amalga oshirildi. CHunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2010 yil 26 noyabrdani PQ-1438-sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarorlari sug'urta kompaniyalarining kelgusida kapitallashuv darajasini oshirish, ularning respublika hududlarida agentlik shaxobchalarini kengaytirish va investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishda katta ahamiyat kasb etadi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan vazifalarning istiqbolda bajarilishi milliy sug'urta bozorimizning yanada modernizatsiya qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu vazifalarning sifatli va o'z vaqtida ijrosini ta'minlash jarayonida sug'urta olamining etuk amaliyotchi mutaxassislari bilan bir qatorda oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot markazlarida soha bilan bevosita yaqindan tanish bo'lgan olimlarning ishtirok etishi dolzarb ahamiyatga ega. Zero, Prezident Islom Karimov 2012 yil 16-17 fevral kunlari Toshkent shahrida

bo‘lib o‘tgan “Bilimli va aql-zakovatli etuk avlodni tayyorlash-mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqlarida ta’lim, shu jumladan oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi rolini alohida e’tirof etdilar.

O‘zbekistonda sug‘urta bozorini rivojlantirishning yo‘nalishlaridan biri sug‘urta tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlarining ko‘lami va sifatini oshirish eng asosiy masalalardan biridir. To‘g‘ri, oxirgi yillarda sug‘urtalovchilar yuridik va jismoniy shaxslarga sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish borasidagi saviyasini oshirish bo‘yicha bir muncha chora-tadbirlarni amalga oshirildi. Ammo, tadqiqotlarning ko‘rsatishicha va bozor ekspertlarining fikricha, respublikamiz sug‘urta bozorida chakana sug‘urta xizmatlar orqali aholining keng qatlamini sug‘urta himoyasiga olish imkoniyati tug‘iladi. SHu bilan bir qatorda sug‘urta bozorini isloh qilish va rivojlantirishning yana bir yo‘nalishi, fikrimizcha, mijozlarning sug‘urtaga bo‘lgan qiziqishlarini umumlashtirish va amaliy choralar ishlab chiqish maqsadida sohada satsiologik tadqiqotlar o‘tkazish ishlarini faollashtirish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda marketing tadqiqotlarini amalga oshirishga ixtisoslashgan konsalting kompaniyalari va oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Buning pirovardida, nafaqat, sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishning miqdor ko‘rsatkichlariga, balki sifat ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

SHuningdek sug‘urta bozorining barqaror rivojlanishida raqobat muhim ahamiyatga ega. Raqobat muhiti sug‘urtalovchilarni yangi sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqishga va amaldagilarni doimo takomillashtirib borilishini ta’minlaydi.

Raqobat-xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning musobaqalashuvi bo‘lib, bunda ularning mustaqil harakatlari har bir sub’ekt tomonidan tegishli tovar bozoridagi tovarlar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini cheklaydi. Keyingi yillarda sug‘urta bozorida raqobat muhiti

kengayotganligi kuzatilmoqda. Sugʻurta bozorida raqobat deganda sugʻurtalovchilarning mijozlarni jalb etish bilan bogʻliq oʻzaro musobaqasi tushuniladi. Bunda raqobat sogʻlom tarzda kechishi kerak. YAʼni, sugʻurtalovchilar oʻz mijozlarini sugʻurta xizmati narxi, sifati kabilar bilan qiziqtirish lozim. Mijozlarni insofsiz raqobat orqali jalb etishga yoʻl qoʻyilmaydi. Insofsiz raqobat — xoʻjalik yurituvchi subʼektlarning tadbirkorlik faoliyatida ustunlikni qoʻlga kiritishga qaratilgan, qonun hujjatlariga va ish muomalasi odatlariga zid boʻlgan, ular oʻrtasida musobaqalashuvni istisno etadigan va amalga oshirilishi natijasida xoʻjalik yurituvchi subʼektlarga tegishli tovar bozorida tovarlar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga taʼsir koʻrsatish imkonini beradigan harakatlari tushuniladi.

Sugʻurta mahsuloti isteʼmolchilarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida quyidagi takliflarni amalga joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Sugʻurta mahsuloti sotilishidan oldin sugʻurtalovchilar isteʼmolchilarga sugʻurta mahsuloti, uning narxi va sifati hamda kompaniyaning moliyaviy ahvoli va toʻlovga qodirligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni toʻliq taqdim etishlari shart. Bu borada amalda mavjud boʻlgan amaliyot har doim ham sugʻurtalovchilar mijozlarga oʻzlari va sugʻurta xizmati toʻgʻrisida aniq va ishonchli axborotlar bermayotganligini koʻrsatayapti. SHu sababli, bizning fikrimizcha, qonun hujjatlari yoki meʼyoriy-huquqiy hujjatlar asosida sugʻurta shartnomasi tuzilgunga qadar sugʻurtalovchi tomonidan isteʼmolchiga taqdim etilishi lozim boʻlgan maʼlumotlar roʻyxatini tasdiqlash lozim. Bu shubhasiz, sugʻurta mahsuloti isʼtemolchilarining manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sugʻurta xizmatlarini baholash boʻyicha reklama va maʼrifiy ishlarni kuchaytirish hamda sugʻurtalovchilar tomonidan reyting baholarini olish tizimini yanada kuchaytirishni taklif etamiz. Toʻgʻri hozirgi kunda respublikamizda sugʻurta kompaniyalari faoliyatini reytingi bilan shugʻullanadigan reyting kompaniyalari mavjud. Masalan, “SAIPRO” va

“Axbor reyting” kompaniyalari sug‘urtalovchilarning faoliyatini reytingini aniqlaydi. Ammo, nazarimizda reyting baholashni amalga oshirishda sug‘urtalovchi qanchalik o‘z faoliyatining, sug‘urta xizmat turlarining ochiq-oydinligini ta’minlayotganligi e’tiborga olish, hatto uni asosiy baholash mezon sifatida qabul qilishlarini taklif qilamiz. SHu ma’noda 2010 yil 26 noyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011 — 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” PQ-1438-son Qarorining qabul qilinganligi va unga asosan respublika moliya institutlari faoliyatiga baho berishda xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qo‘llaniladigan baholash mezonlari va normalardan foydalanishning joriy etilishi, albatta, istiqbolda sug‘urtalovchilar faoliyatining shaffofligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug‘urta mahsuloti iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish mexanizmini kuchaytirish maqsadida “Is’tamolchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 28-moddasi talablarini amalda bajarilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorini qabul qilishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Ma’lumki, mazkur qonunning 28-moddasida “Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadigan ijrochi o‘zining tugatilishi yoki bankrot bo‘lishi ehtimolini nazarda tutgan holda iste’molchining talablarini qondirish maqsadida o‘z javobgarligini sug‘urta qildirishi shart”²²ligi ko‘rsatib o‘tilgan. Moliyaviy xizmatlar ijrochisi iste’molchiga etkazilgan zarar uchun o‘zining javobgarligi to‘g‘risida sug‘urta shartnomasi borligi haqida iste’molchiga axborot berishi shart. Amalda bu modda o‘z ijrosini topmagan.

Ma’lumki, bozor munosabatlari ancha taraqqiy etgan davlatlarda sug‘urtalovchi to‘lov qobiliyatining yo‘qotishi yoki bankrot bo‘lgan xolatlarida bankrot bo‘lgan yoki tugatilgan sug‘urta kompaniyasining sug‘urta portfelini to‘liq boshqa sug‘urta kompaniyasiga o‘tkazish amaliyoti mavjud. Ammo, bunday tajriba O‘zbekiston Respublikasi amaliyotida qo‘llanilmaydi. Holbuki,

²² Ўзбекистон Республикасининг “Истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни.

bunday amaliyotning qo'llanilishi natijasida sug'urta mahsuloti iste'molchilarining manfaatlari himoya qilinadi. SHundan kelib chiqqan holda respublikamizda bankrot bo'lgan yoki tugatilayotgan sug'urta kompaniyasining sug'urta portfelini boshqa moliyaviy barqaror bo'lgan va to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan sug'urtalovchilarga berish tartibini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taklif etamiz.

Sug'urta mahsulotining iste'molchisi sifatida sug'urta qildiruvchilarning manfaatlari buzilgan holda ular qanday hatti-harakatlarni amalga oshirishlari zarurligi muhim ahamiyatga ega. Ammo, amaliyotda sug'urta qildiruvchi o'zining huquqlarini to'la-to'kis bilmasliklari oqibatida kimga murojaat qilishlarini ham, sug'urtalovchi oldida o'zining haq-huquqlarini qanday himoya qilishini ham bilmaydi. SHuni e'tiborga olgan holda, nazarimizda, "Sug'urta mahsuloti iste'molchisi kim va uning huquqlari qanday himoya qilinadi" nomli sodda va tushunarli tilda yozilgan eslatma tayyorlash va ularni sug'urta mahsuloti is'temolchilariga bepul tarqatishni taklif etamiz. SHuningdek, aholining sug'urta sohasidagi savodxonligini oshirish ham sug'urta mahsuloti iste'molchilarining huquqlarini himoya qilinishini targ'ib qiluvchi oliy o'quv yurtlari, akademik litsey va kollejlarda maxsus o'quv kurslarini tashkil etishni taklif qilamiz.

Sug'urta shartnomalarida iste'molchilarning huquqlarini keng aks ettirish hamda sug'urtalovchining is'temolchi oldidagi majburiyatlarini aniqlashtirish sug'urta mahsuloti is'temolchilarining manfaatlari himoyalashida asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Iste'molchilarning huquqlarini teng shartlarda inobatga olmagan sug'urta shartnomalari aniqlangan taqdirda, ularni ommaviy axborot vositalarida keng muhokama qilish, bu yo'nalishda davra suhbatlarini tashkil etish zarur.

SHu bilan bir qatorda O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya va isloh qilishning hozirgi bosqichida milliy sug'urta bozorini samarali tashkil etish va uni rivojlantirish tendensiyalari quyidagilardan iborat:

- ❖ sug'urta klasslarining me'yoriy-huquqiy asosini shakllantirish;

❖ aholi ehtiyoj sezadigan sugʻurta turlarini aniqlab, ular boʻyicha engilliklar yaratish (aholini qiziqtirish maqsadida), ularning talabini oʻrganish, ularga muvofiq holda takliflar yaratish, aholini daʼvat etib emas, balki qiziqtirib, ishonchini qozongan holda sugʻurtaga jalb qilish;

❖ sugʻurta xizmatlarini internet orqali amalga oshirishni yoʻlga qoʻyish, chet mamlakatlardan mijozlar jalb qilish, xorijiy sugʻurtalovchilar bilan hamkorlik qilish, ular bilan qayta sugʻurtalash shartnomalarini tuzish imkonini yaratadi;

❖ aholining sugʻurta madaniyati darajasini oshirish. Bu sugʻurta sohasi rivojlanishi, avvalo shakllanishining asosiy sharti hisoblanadi. Aholining sugʻurta xizmatlariga talabi pastmi, demak ularda sugʻurta madaniyati shakllanmagan. Odamlarning sugʻurta madaniyatini shakllantirish yoʻllari quyidagilar, yaʼni ularga sugʻurtaning asl mohiyatini ochib berish, u qachon zaruratga aylanishini tushuntirish, uning afzal tomonlarini koʻrsatish, namoyon qilish, har qadamda xavf-xatarning mavjudligi, uning qachon sodir boʻlishi namaʼlumligi va aynan shu davrda sugʻurtaning ahamiyati beqiyosligini anglatish hisoblanadi;

❖ sugʻurta kompaniyalarining shaffofligini saqlab qolish, yaʼni potensial mijozlar sugʻurta kompaniyalarining faoliyat yoʻnalishlari, moliyaviy barqarorligi, toʻlovga layoqatliligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarga hech toʻsqinliksiz ega boʻlsinlar;

❖ sugʻurta bozori infratuzilmasi subʼektlarining faoliyatini samarali tashkil etish zarur;

❖ sugʻurta xizmatlarining mamlakatimizning eng chekka hududlargacha etib borishini taʼminlash, shu bilan bir qatorda u erdagi aholiga fuqorolar yigʻinida sugʻurta haqida taqdimotlar namoyish etish zarur;

❖ hududlarda faoliyat olib boruvchi sugʻurta kompaniyalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash iborat.

SHuningdek dunyo sugʻurta bozorida sugʻurtalovchilarning raqobatbardoshligi kundan-kunga oʻsib bormoqda. Buning aksariyat qismini

rivojlangan mamlakatlarni sug'urta kompaniyalari tashkil etadi. Masalan Buyuk Britaniya jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiradi. Keyingi o'n yil mobaynida jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga Buyuk Britaniya sanoatining qo'shayotgan hissassi sezilarli darajada kamaygan, uning tovarlarining xalqaro bozorlaridagi raqobatdoshligi tushib ketgan bo'lsada, Buyuk Britaniyaning moliya-kredit tizimi hamon dunyoda etakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Buyuk Britaniyada sug'urta ishi shunchalik rivojlanganki, buni mamlakat parlamenti tomonidan qabul qilingan ayrim qonunlar misolida ham ko'rish mumkin. Buyuk Britaniyada sug'urta tizimini davlat tomonidan tartibga solishda soliq siyosatining muhim o'rni bor. Gap shundaki, uzoq yillardan beri uzoq muddatli hayotni sug'urta qilish bo'yicha shartnomalarni tuzgan sug'urtalanuvchilarga daromad solig'ini to'lashda imtiyozlar berilgan. Masalan, umrbod hayotni sug'urtasida sug'urta mukofoti 10 yildan kam bo'lmagan muddatda to'lab borilsa, sug'urta summasi miqdori jami to'langan sug'urta mukofotining 75 foizdan kam bo'lmagan miqdorini tashkil etsa, sug'urtalanuvchi to'laydigan daromad solig'i stavkasi 15 foizga kamaytiriladi.

SHuni alohida qayd etish zarurki, sug'urta kompaniyalari korporatsiya solig'ini to'lashda katta imtiyozga ega. Agar, tadbirkorlikning boshqa tuzilmalari 35 foizli stavka bilan foyda solig'i to'lasa, sug'urta kompaniyalarining foydasiga solinadigan soliq stavkasi 30 foizni tashkil qiladi.

O'zbekiston sug'urta bozorida aksariyat davlat sug'urta kompaniyalarining nufuzi juda yuqori bo'lib, ular sug'urta bozoridagi raqobat muhiti ham shular hissasiga to'g'ri kelmoqda. SHuning uchun biz sug'urta bozorida sug'urtalovchilarning raqobatbardoshligini oshirish uchun birinchi navbatda ularni to'lovga qobiliyatlilik darajasini mustahkamlashimiz kerak, ikkinchidan ularni nodavlat sug'urta kompaniyalarida ham sug'urta xizmatlarini takomillashtirish va uni yo'lga qo'yish kerak bo'ladi, uchinchidan qayta sug'urtalovchi kompaniyalar faoliyatini takomillashtirish kerak hamda to'rtinchidan esa hayot sug'urta tarmog'i bo'yicha sug'urtalash munosabatlarni barcha sug'urta kompaniyalari faoliyatida takomillashtirish kerak deb

o'ylayman. SHundagina sug'urtalovchilarni raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi va ularni nufuzi nafaqat milliy sug'urta bozorida balki mingtaqaviy va xalqaro sug'urta bozorlarida ham oshib boradi. Bu o'z navbatida sug'urtalovchilarni jahon sug'urta bozorida raqobatlasha olish muhiti yaratiladi. CHunki O'zbekiston milliy sug'urta bozorida xizmatlar ko'payib borar ekan shunga muvofiq ularni javobgarlik chegarasini hajmi katta bo'lib boradi.

SHuningdek hayot sug'urta bozori va qayta sug'urtalash tizimini yanada takomillashtirish uchun hayotni sug'urtalash turi bo'yicha sug'urta tarif stavkalari miqdorini tushirish kerak hamda qayta sug'urtalashga eng kam ustav kapitali miqdorini bir oz kamaytirgan holda ularni son jihat ko'paytirish kerak. Bu o'z-o'zidan qayta sug'urtalashda sug'urtalovchilar o'rtasida ham raqobatni sezilarli darajada oshiradi. SHu bilan bir qatorda sug'urtalovchilar o'rtasida ko'rsatiladigan sug'urta maxsulotini sifat jihatdan yaxshilanadi va sug'urta xizmatlarini narxi pasayadi. SHuning uchun har bir sug'urtalovchi o'zini raqobatbardoshligini sug'urta bozorida oshirar ekan u o'zining to'lovga qobiliyatlilik darjasini mustahkamligi, sug'urta maxsulotini sifatligi, sug'urta xizmatini arzonligi bilan bu yutuqlarga erishishi mumkin.

Hozirda hukumatimiz tomonidan sug'urta sohasida amalga oshiriladigan barcha ezgu ishlar sug'urtalovchilarni milliy sug'urta bozoridagi nufuzini shu bilan bir qatorda mingtaqaviy va jahon bozorlarida ko'tarish ham ularni raqobatbardoshligini oshirishga qaratilganligidan dalolat beradi.

III bob bo'yicha xulosa

Hozirda sug'urtalovchilar uyushmasi sug'urta bozorini rivojlanishidagi rolini oshirish juda muhim ahamiyatga ega. Ammo sug'urtalovchilar uyushmasi sug'urta bozorini rivojlanishidagi rolini oshirishda bir qancha muammolar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etishda hamda sug'urtalovchilar uyushmasi va uning sug'urta bozori rivojlanishidagi rolini oshirish maqsadida, aholini qaysi sug'urta maxsulotiga bo'lgan talabni o'rganish hamda

sug'urtalovchilar tomonidan ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlari sifatini yanda yo'lga qo'yish, shu bilan bir qatorda aholini sug'urtaga bo'lgan qiziqishini orttirish va hududlarda aholi o'rtasida sug'urta madaniyati hamda sug'urta uyushmalar faoliyatini samarali tashkil etishdan iborat.

Xulosa

Ma'lumki, oxirgi yillarda sug'urta bozori rivojlanishida tub o'zgarishlar ro'y berdi desak mubolag'a bo'lmay. Chunki yildan-yilga sug'urta bozorida yig'ilgan jami sug'urta mukofotlarini o'sishi va unga muvofiq ravishda sug'urtalanuvchilarning baxtsiz hodisalari uchun to'lanadigan sug'urta to'lovlari buning yaqqol isbotlab oladi. Bunday ijobiy natijalarga erishishning asosiy sabablaridan biri, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik shakliga ko'ra, transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tizimini yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.

SHuningdek majburiy sug'urtani joriy etilishi sug'urta faoliyatini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shar ekan, shunga qaramasdan amaliyotimizda

majburiy sugʻurta shaklini amalga oshirish boʻyicha baʼzi bir muammolarni echimini topish maqsadida quyidagi xulosaviy fikrlarga asoslangan holda taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik:

- Oʻzbekiston sugʻurta bozorida majburiy sugʻurta xizmatini amalga oshirish orqali ixtiyoriy sugʻurta xizmatlariga boʻlgan talab sezilarli darajada ortmoqda. Lekin shunga qaramasdan baʼzi bir sugʻurtalanuvchilar ushbu majburiy sugʻurta xizmatidan norozi ekanliklari toʻgʻrisida har-xil gap soʻzlarni guvohi boʻlamiz. Bu norozilik faqat sugʻurtalanuvchining mashinasiga etkazilgan zarar miqdoriga sugʻurtalovchi tomonidan etarli darajada sugʻurta puli miqdorini toʻlanmaganligiga borib taqaladi.

SHuning uchun transport vositalari egalarining uchinchi shaxs oldidagi javobgarligini majburiy sugʻurtasi boʻyicha sugʻurta tarifini oshirish maqsadga muvofiq deb oʻylayman. CHunki bugungi kundagi pulning qiymati ertangi kundagi pulning qiymatiga javob bera olmaydi. Qolaversa bugungi kunda avtotransport vositalariga boʻlgan talab yuqori boʻlib, ularning bahosi va ularga koʻrsatiladigan texnik xizmatlar narxi yuqori.

- Xorij tajribasi shuni koʻrsatadiki, sugʻurta xizmati har bir shaxsning doimiy hayotiy xizmatiga aylanib qolgan. Bugungi kunda Oʻzbekiston fuqorolarining doimiy hayotiga va sogʻliga bogʻliq boʻlgan tibbiy sugʻurta xizmati boʻyicha qonunchilik baʼzasi va sugʻurta xizmatlari aytilgan darajada joriy etilmagan.

SHu nuqtai nazardan Oʻzbekiston iqtisodiyotida tibbiy sugʻurta boʻyicha qonunchilik baʼzasi joriy etish va aholi oʻrtasida tibbiy sugʻurta xizmatlarini keng targʻib qilishdan iborat. CHunki har bir aholini yashash sharoiti risk bilan bogʻliqdir.

- Sugʻurta kompaniyasi sugʻurtalanayotgan obʼektni koʻzdan kechirish huquqiga ega. Lekin baʼzi hollarda sugʻurtalovchi sugʻurtalayotgan obʼektini qogʻozlarda aks ettirilgan maʼlumotlarga eʼtibor qaratib, uni koʻzdan kechirish yuzasidan ish tutmaydi.

SHu bois sug'urtalovchi kompaniya sug'urtalanayotgan ob'ektni ko'zdan kechirib, shu ob'ektni sug'urtalanayotganligiga ishonch hosil bo'lgandan so'ng sug'urtalasa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu o'z navbatida sug'urtalovchi bilan sug'urtalanuvchi o'rtasidagi har xil nizolarni kelib chiqishini oldini olishga yaqindan yordam beradi.

Ma'lumki majburiy sug'urta xizmati bo'yicha 30 foizga yaqin sug'urtalovchi kompaniya tegishli litsenziya olgan. Lekin bular orasida majburiy sug'urta xizmatini ko'rsatuvchi (ayniq hududlarda) ba'zi birlari qolgan sug'urta kompaniyalarini reytingi tushurib yubormoqda. Natijada ushbu sug'urta xizmatiga bo'lgan ishonchni yo'qotishga olshib kelmoqda. CHunki ba'zi bir sug'urtalovchilar sug'urta xizmatlarini sug'urtalanuvchi e'tiboriga to'liq etkazib bera olmayapti va sug'urtalanuvchi tomonidan yuzaga kelgan baxtsiz hodisasi uchun berilgan xabar sug'urtalovchi tomonidan o'z vaqtida bajarilmayapti. Bu holat ayniqsa hududlarda.

SHuning uchun majburiy sug'urta xizmatini amalga oshiruvchi ba'zi bir sug'urta kompaniyalar faoliyatini qaytadan ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. SHu bilan bir qatorda sug'urtalovchilarning bir-birlari o'rtasida monitoring kuzatuv ishlarini takomillashtirish kerak. CHunki ular bir-birlaridan tajriba almashgan holda sug'urta faoliyatini takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqadilar.

- sug'urtalovchilarning raqobatbardoshligini oshirishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni keng qamrovlilik bilan olib borish, xususan sug'urta tashkilotlari faoliyatida ixtisoslashgan marketing xizmatini tashkil etish kerak.

- sug'urta tariflarini belgilashda potensial sug'urtalanuvchilarning ijtimoiy, iqtisodiy, hududiy o'ziga xosliklarini hisobga olishni bunda bozor segmentatsiyasidan keng foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

- sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta xizmatlarini sotishda tijorat banklari, pochta bo'limlari bilan istiqbolli hamkorlikni yo'lga qo'yishni yanada kengaytirishni taklif etaman.

- mamlakatimizda sug'urta xizmatlarini ko'rsatish rivojlanish bosqichida turgan bir davrda sug'urta sohasida qilinadigan reklamalar faqat o'z kompaniyasini targ'ib qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki aholining sug'urta madaniyatini oshishiga, sug'urtaning ijtimoiy vazifasini ochib berishga oid lavhalarni tayyorlash va aholi e'tiboriga etkazish kerak.

- xorijiy amaliyotga tayangan holda mamlakatimizda faoliyat yurituvchi ilg'or sug'urta kompaniyalari internet saytlari orqali ommaviy standart hisoblanuvchi sug'urta xizmatlarini tajriba tariqasida sotishni amalga oshirishni tavsiya etamiz.

- sug'urtalovchilar faoliyatida majburiy tibbiy sug'urtani kengaytirish kerak lozim.

- O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urtalash tizimini rivojlantirish ya'ni qayta sug'urtalovchi kompaniyalar faoliyatini tashkil etishni son jihatdan ko'paytirish kerak.

- Qayta sug'urta qilishga iqtisodiy talab mavjud bo'lmagan hollarda, xorijga qayta sug'urta qilishning oldini olish uchun boshqa mamlakatlar bilan amalga oshirilayotgan qayta sug'urtalash kvotasining davlat tomonidan ishlab chiqishi lozim. Qayta sug'urta qilishning bunday huquqiy muvofiqlashtirilishi va bir vaqtning o'zida ichki sug'urta bozorida qayta sug'urta qilishni rag'batlantirishning solikli mexanizmi bilan qo'shimcha tarzda to'ldirilishi va mamlakatimizdan tegishli ravishda xorijga qayta sug'urta qilishga uzatishlar hajmini chegaralash mumkin.

- Milliy qayta sug'urtalovchilarni monopol faoliyani cheklash maqsadida ichki qayta sug'urtalashning chegaraviy kvotasini belgilash. Bu ishni amalga oshirish uchun "qayta sug'urta xizmatlari ko'rsatishning yagona talablari va standartlari to'g'risida"gi nizomga o'zgartirish kiritish orqali aniq kvotani belgilash mumkin.

- Boshqarish huquqi milliy kompaniyalarda bo'lgan qo'shma qayta sug'urtalovchi aksiyadorlik kompaniyalarini tuzish orqali ham sug'urta mukofotlarini chetga chiqib ketishini oldini olish mumkin.

- Xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish va kadrlarni xorij kompaniyalari bilan tajriba almashinishini samarali yo'lga qo'yish.

YUqorida bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkinki, yuqorida qayd etilgan muammolar va unga muvofiq taklif va tavsiyalarni sug'urta faoliyatida birin-ketinlik bilan tadbiq etib borsak, sug'urtaga bo'lgan ishonch va sug'urta bozori infratuzilmasi hamda ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari ko'lamini kengaytib sug'urta bozorida raqobat hamda sug'urta xizmatining sifati bir muncha yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1996 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2008 yil 21 aprel.
3. "Ish beruvchiining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2009 yil 16 aprel.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida». 2002 yil 28 may (O'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
5. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida"gi Qonuni.// www.Lex.uz.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2006—2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni

jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2006 yil 17 apreldagi PQ-325-son Qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-618-son Qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 21 maydagi «O'zbekiston Respublikasida 2010 yilgacha bo'lgan davrda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-872-sonli qarori.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011 — 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-son Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 31 maydagi PQ-1544-son Qarori

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 141-sonli qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2009 yil 24 iyundagi 177-son qarori.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

14. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O‘zbekiston, 2010. – 80 b.
15. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O‘zbekiston, 2009.- 24 b.
16. Karimov I. A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. –T.: “O‘zbekiston”, 2011y.-528 bet.
17. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi.//Xalq so‘zi, 2014 yil 18 yanvar.

IV. Asosiy adabiyotlar

18. Godin A.M., Frumina S.V. Straxovanie: uchebnik. – M.: izd-vo «Dashkov i K», 2009. – 480 str.
19. Straxovanie: uchebnik/Pod red. Prof. T.A.Fedorovoy. – SPb.:Magistr , 2008.- 768 s.
20. Straxovanie: uchebnik dlya studentov, obuchayuyuxsya po spetsialnostyam «Finansy i kredit», «Buxgalterskiy uchet, analiz i audit». Pod.red.V.V.SHaxova. – M.: izd-vo «YUNITI-DANA», 2009. – 511 str.
21. Ochilov I., Sultonov D. Sug‘urta hisobi va hisoboti. O‘quv qo‘llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010y. – 224 bet.
22. Sug‘urta agentlari uchun qo‘llanma. – T.: “PRINTXPRESS ”, 2010 y. – 208 bet.
23. Shennaev X.M., Kenjaev I.G’. Chet mamlakatlar sug‘urtasi. O‘quv qo‘llanma. T.,2012.
24. Shennaev X.M., Xalikulova G.T., Tashqi iqtisodi faoliyatda sug‘urta. O‘quv qo‘llanma. T.,2012.

25. Shennaev X.M., Xalikulova G.T., Sug'urta marketingi. O'quv qo'llanma. T.,2012.
26. Shennaev X.M., O'zbekiston sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. T.,2013y.
27. Samarova E. Straxovaya matematika: prakticheskiy kurs. Uchebnoe posobie. – M.: “INFRA – M ”, 2009 g. – 80 str.
28. Straxovanie. Uchebnik / pod red. T.A.Fedorovoy. – M.: “Magistr ”, 2009 g. – 1006 str.
29. Рыбин В. Основы страхования. Uchebnoe posobie. – M.: “KNORUS ”, 2010 g. – 240 str.
30. Nikulina N. Straxovoy marketing. Uchebnoy posobie. – M.: “YUNITI – DANA ”, 2009 g. – 503 str.
31. Nikulina N. Straxovanie. Uchebnoe posobie. – M.: “YUNITI – DANA”, 2008 g. – 511 str.
32. Serbinovskiy B. Straxovoe delo. Uchebnoe posobie. – Rostov n/D: “Feniks ”, 2010 g. – 476 str.
33. Straxovanie: ekonomika, organizatsiya, upravlenie. Uchebnik. – M.: “Ekonomika”, 2010 g. - 751 str.
33. Straxovanie: uchebnik dlya studentov, Obuchayushixsya po spetsialnostyam “Finansy i kredit”, “Buxgalterskiy uchet, analiz i audit” / pod. red.V.V.SHaxova, YU.T. Axvlediani.–M.:“YUNITI–DANA”,2010 g.- 511 str.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

34. Gavrilova S. Straxovanie: Uchebnoe posobie. – M.: “Eksmo”, 2010 g. – 304 str.
35. Galaganov V. Основы страхования i straxovogo dela: uchebnoe posobie. – M.: “KNORUS ”, 2010 g. – 224 str.
36. Denisova I. Straxovanie. Uchebnik. – M.: IKS “MarT ”, 2009 g. - 240 str.
37. Igoshin N. Straxovoe pravo. Uchebnoe posobie. – M.: “YUNITI – DANA”, - 2010 g. – 167 str.

38. Korotkova YU.E. Kratkiy kurs po straxovaniyu. Uchebnoe posobie. – M.: Izd. “Okey – kniga ”, 2010 g. – 176 str.
39. Kuznetsova I. Straxovanie jizni imushchestva grajdan. Prakticheskoe posobie. – M.: “Dashkov i K ”, 2010 g. – 228 str.

VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

40. Analiz rыnka OSGO Uzbekistana za 2009 god.//Biznes-vestnik Vostoka, 28 yanvarya 2010 goda №5 (1218), str.14-15.
41. Bolshinstvo straxovыx pretenziy udovletvoryaetsya. – Biznes-vestnik Vostoka, 26 yanvarya 2010 goda №4 (1217), str.14.
42. Grebenщikov E.S. Finansovыy krizis v mire: posledstviya i uroki dlya straxovogo biznesa, regulyatorov i straxovateley// Finansы, №3 2009 g. s. 53-54.
43. Ikromov O.G., Gaybullaev B. Remni finansovoy bezopasnosti (obzor straxovogo rыnka – 2008)// Ekonomicheskoe obozrenie, №5-6, 2009 g. S.86-91.
44. Ikromov O.G. Straxovanie: vchera, segodnya, zavtra// Narodnoe slovo, 3 iyulya 2009 g. S.1-2.
45. Imamov SH.B. Straxovanie kak sredstvo protiv krizisa// Narodnoe slovo, 5 avgusta 2009 g. S.1-2.
46. Itogi straxovogo rыnka za I polugodie 2009 g.//Biznes-vestnik Vostoka, №54 2009 g., s.12.
47. Obzor straxovogo rыnka Uzbekistana po itogam 2010 goda//Biznes-vestnik Vostoka, №3-4/1 13 yanvarya 2011 goda. str.8.
48. Uzagrosugurta”: straxovaya zaxщita po vsemu Uzbekistanu//Biznes-vestnik Vostoka, №30, 14 aprelya 2011 g. – str.5.
49. Uzbekinvest”: strategiya uspehnogo biznesa//Biznes-vestnik Vostoka, №32, 21 aprelya 2011 g. –str.7.

50. Straxovaya kompaniya “Kafolat”: 14 let uspehnogo rosta// Biznes-vestnik Vostoka, №29 12 aprelya 2011 g. –str.4.
51. Majburiy sug‘urta afzalliklari//Xalq so‘zi, 2009 yil 25 aprel.
52. Fond OSGO podvel predvaritelnye itogi za 2009 god. //Biznes-vestnik Vostoka, 26 yanvarya 2010 goda №4 (1217), str.14.
53. Ikromov O.G‘., SHennaev X.M. O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozori: rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.// “Moliya” jurnali, 2008 yil 1-son.
54. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
55. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari.
56. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha to‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

VII. Internet saytlari

57. <http://www.mf.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
58. <http://www.UzReport.com> (“SAIPRO” axborot-reyting agentligi).
59. <http://www.agros.uz> (“O‘zagrosug‘urta” davlat-aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi).
60. <http://www.uzbekinvest.uz> (“O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi).
61. <http://www.kafolat.uz> (“Kafolat” davlat-aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi).
62. <http://www.alfainvest.uz> (“Alfa invest” sug‘urta kompaniyasi).
63. <http://www.alskom.uz> (“Alskom” sug‘urta kompaniyasi).
64. <http://www.kapitalsugurta.uz> (“Kapital sug‘urta” sug‘urta kompaniyasi).
65. <http://www.allinsurance.ru> (Rossiya Federatsiyasining sug‘urta bo‘yicha sayti).
66. <http://www.expert.ru> (Rossiya Federatsiyasi reyting kompaniyasi).
67. <http://www.ankil.ru> (Rossiya Federatsiyasining konsalting firmasi).
68. <http://www.znay.ru> (Rossiya Federatsiyasining sug‘urta sayti).

